



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

Postda Ha nocty

2024-yil
30-may
payshanba

№ 22 (4664)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqq boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

1-IYUN – XALQARO BOLALARNI HIMOYA QILISH KUNI

CHAQMOQSAN, BOLAJON!

**Izlasangiz, biz shu yurtдан topilamiz,
El-yurt uchun chaqmoq bo'lib chaqilamiz.
Ona Vatan degan buyuk imorat-chun,
Kerak bo'lsa, mixga do'nib qoqilamiz.**

Ushbu satrlar IIVda bo'lib o'tgan «Namunali oila» ko'rik-tanlovining respublika bosqichida Qoraqalpog'istonning Ellikqal'a tumani IIB kadrlar bilan ta'minlash guruhi katta inspektori, katta leytenant Botir Iskandarov oilasining to'ng'ich farzandi Farzona tilidan yangragandi.

Farzoning onasi Gulbahor Murodova Nukus davlat pedagogika institutining Ellikqal'a filialida o'qituvchi.

– Men dunyodagi eng baxtli otaman, – deydi katta leytenant B. Iskandarov. – Qizimning kelajakda Vatanimiz ravnaqi uchun kerakli inson bo'lishiga chin dildan ishonaman. Farzona hozirgi kunda mahallamizdagi «Shodlik» maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanmoqda. Yozuv-chizuvlarni yaxshi o'zlashtirgan. Bog'chada ham uni barcha yaxshi ko'rib, chaqqon qiz, deyishadi. O'g'lim Bobur ham opasi singari zukko bo'lib ulg'ayayotganidan juda xursandman.



BURCHINI SIDQIDILDAN BAJARAYOTGANLAR

2



REYD CHOG'IDA

9



TELEFONDA SO'ZLASHUV MADANIYATI

24



KASB FIDOYISI

O'z kasbining fidoyisi, o'rnak olsa arziydigan osoyishtalik posbonlaridan biri bo'lgan Kogon shahar IIB M va FRG katta mutaxassisi, mayor O'tkir Rajabov tanlovini taqdiriga aylantirgan xodimlardan hisoblanadi.

O'tkirjon xizmatni Buxoro shahar IIB Pasport bo'limida inspektorlik lavozimida boshladi. Keyinchalik viloyat IIB M va FRB inspektori va 2020-yildan beri egallab turgan lavozimida astoydil xizmat qilmoqda.

Mayor O'. Rajabov tajribali osoyishtalik posboni, xizmat vazifasini vijdonan bajaradigan rahbarlar sirasidan. Uning o'z kasbiga bo'lgan mas'uliyati va izlanuvchanligi bois samarali natijalarga erishyapti. Ta'kidlash joizki, O'. Rajabov boshchiligidagi guruh xodimlari tomonidan joriy yilning o'tgan davri mobaynida 778 nafar fuqaro doimiy yashash manzili bo'yicha, 81 nafar fuqaro vaqtincha yashash joyi bo'yicha hisobga olingan. Shuningdek, 1155 nafar fuqaroga xorijga

Buxoro viloyati



chiqish biometrik pasporti rasmiylashtirib berildi, 3760 nafarga yaqin fuqaroga esa ID kartalar topshirildi.

Reja asosida o'tkazib kelinayotgan «Pasport-viza» tadbirlari davomida 115 ta huquqbuzarlik holati aniqlandi. Qoidabuzarlarga nisbatan ma'muriy choralar ko'rib, qonunda belgilangan tartibda jarima undirildi.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

BILIB QO'YGAN YAXSHI

BEGONA ODAMNI DOIMIY RO'YXATDAN
CHIQRISHDA UNING ROZILIGI SHART EMAS

Keyingi yillarda mamlakatimizda mulk huquqi daxlsizligini ishonchli himoya qilish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilmogda. Xususan, xususiy mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqini bevosita yoki bilvosita cheklashni nazarda tutuvchi mavjud qoidalar, talab va cheklovlar bekor qilinmogda.

2024-yil 5-yanvarda Vazirlar Mahkamasining «Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlar belgilanganligi munosabati bilan



O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga ko'ra, turarjoyga nisbatan mulkiy huquqlarga yoki turarjoy mulkdori bilan qarindoshlik aloqalariga ega bo'lmagan shaxslarni ushbu turarjoydan doimiy ro'yxatdan chiqarish uchun ularning roziligini olish bekor qilindi. Ushbu shaxslarning uy-joydan foydalanish huquqi sud tomonidan belgilangan holatlar yoki taraflar o'rtasida boshqacha kelishuv mavjud bo'lgan holatlar bundan mustasno.

Begona odamni uyingizdan doimiy ro'yxatdan chiqarish uchun ichki ishlar organlari migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmalariga ariza bilan murojaat qilishingiz lozim.

SOHAVIY XIZMATLARDA

BURCHINI SIDQIDILDAN BAJARAYOTGANLAR



Suratda: viloyat Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi PPX safdor xodimi, safdor Sahob Muzaffarov.

Joriy yilning o'tgan davrida IIV Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamentining Jizzax viloyati Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi shaxsiy tarkibi tomonidan jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida samarali ishlar amalga oshirilmogda.

Jumladan, patrul-post xizmati xodimlari 190 ta, profilaktika inspektorlari 311 ta ma'muriy

huquqbuzarlikni aniqlashga muvaffaq bo'lishdi. Tezkor qidiruv bo'linmalari xodimlari esa firib-

garlik va talon-toroj bilan bog'liq 3 ta qonunbuzarlikni aniqlashdi. Shuningdek, 2 nafar qidiruvdagi shaxsni qo'lga olib, 1 nafar bedarak yo'qolgan fuqaroni topishgan. Ta'kidlash kerakki, o'tgan yilning mos davri bilan qiyoslaganda, joriy yilning o'tgan davrida xizmat hududida jinoyatchilikni 50 foizga qisqartirishga erishilgan.

Soha vakillari jinoyatchilikni fosh etish borasida ham faollik ko'rsatishyapti. Jumladan,

Sharof Rashidov tumanining «Ravonlik» mahallasida yashovchi A.S. jinoyat ustida qo'lga olindi. Bu shaxs G'allaorol tumanining «Sarbozor» mahallasida istiqomat qiluvchi S.E.ning ishonchiga kirib, o'ziga qarashli bo'lmagan avtobusni 6 600 AQSH dollariga sotish va pulini o'zlashtirishni ko'zlagandi.

Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.
Jizzax viloyati.



Suratda: boshqarma PPX safdor xodimi, kichik serjant Jasurbek Mamatqulov hamda «Jizzax» temir yo'l vokzali noziri Murodjon Ashurov.



YANGI O‘ZBEKISTON – YANGI ICHKI ISHLAR ORGANLARI

XORAZM VILOYATI

Viloyat IIB Moliya va moddiy-texnika ta’minoti boshqarmasi xodimlari ta’miranib zamonaviy qulayliklarga ega bo‘lgan binoga ko‘chib o‘tishdi.

Yangi binoning ochilish marosimida Ichki ishlar vaziri o‘rinbosari, general-mayor Davron Nazarmuxamedov qatnashib, bugungi kunda tizimda amalga oshirilayotgan keng



ko‘lamli islohotlar natijasida sohaning moddiy-texnik bazasi zamon talablariga mos holda mustahkamlanayotgani, bu yurtimiz tinchligi,

fuqarolar xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etayotganini alohida ta’kidladi.

O‘z muxbirimiz.

ФАХРИЙЛАР – ФАХРИМИЗ

ҲАМОН КУЧ-ҒАЙРАТГА ТЎЛА

Омонбой Мамасолиев серфарзанд оилада вояга етган. Отаси Мамасоли ака бутун умр қишлоқ хўжалиги соҳасида меҳнат қилган, онаси Ҳошияхон опа уй-рўзгор ишлари ва фарзандлар тарбияси билан шуғулланган.



Омонбой Андижон педагогика институтини битиргач, қишлоқ мактабида ўқитувчи бўлиб ишлади. Муддатли ҳарбий хизматни ўташ чоғида кичик офицерлар таркибини тайёрлаш бўйича

қисқа муддатли курсларни тамомлаб, лейтенант унвони билан захирага бўшатилади.

1968 йилда О. Мамасолиев қалб амри билан ички ишлар органлари сафига кириб, Андижон

вилояти ИИБ шахсий таркиб билан ишлаш хизмати инспектори, катта инспектори сифатида фаолият олиб борди. Хизматдан айрилмаган ҳолда, ИИБ Тошкент олий мактабини тамомлаб,

10 йилдан ортиқ вилоят ИИБ Қўриқлаш бўлими бошлиғи лавозимида хизмат қилди. Кейинчалик Андижон вилояти ИИБда турли масъулиятли раҳбарлик лавозимларида фаолият олиб борди ва 1994 йилда полковник унвони билан истеъфога чиқди.

Қарийб олтмиш йил бирга яшаган рафиқаси Зиннатхон опа билан беш фарзандни вояга етказиб, олий маълумотли бўлишларида қўл-қанот бўлишди. Тўнғич ўғли Улуғбек қишлоқ хўжалиги соҳасида, Ислонбек эса ички ишлар органларида хизмат қилиб, майор унвонида истеъфога чиқди.

Қизлари Ферузахон ва Дилфузахон мактабда ёш авлодга таълим-тарбия бериб келмоқда.

Истеъфодан сўнг қаҳрамонимиз уйида бекор ўтира олмади. Ўн йилдан ортиқ вақт давомида Жалақудуқ туманидаги «Омонлик» фермер хўжалигига раҳбарлик қилди, бу хўжалик пахта ва ғалладан юқори ҳосил олиб

машҳур бўлган. Сўнги пайтларда Омонбой ака набиралар тарбияси билан машғул.

– Андижон вилояти ички ишлар органлари тарихига исмлари зарҳал ҳарфлар билан битилган генерал-майорлар Мухтор Султонов, Фафур Раҳимов, полковниклар А. Хатипов, С. Қўчқоров ва О. Раҳимовлар билан хизмат қилиш шарафига муяссар бўлганман.

Шунингдек, шогирдларим – полковниклар А. Собиров, Б. Тошматов, У. Абдуразоқовлар билан фахрланаман.

Лавҳамиз қаҳрамони бугун ҳам куч-ғайратга тўла. У вилоят ИИБ бўлинмаларининг доимий меҳмони. Ёш ходимлар билан учрашувларда қатнашиб, уларга хизмат йиллари ҳақида сўзлаб беради, ҳаётий тажрибаси билан ўртоқлашади ва хизмат бурчини ҳалол ва виждонан бажаришга ундайди.

Борис КЛЕЙМАН,
ўз мухбиримиз.

Андижон вилояти.

★ Ветераны — наша гордость!

НА СЛУЖБУ ПО ЗОВУ СЕРДЦА

Для капитана в отставке Максета Раметова отец всегда являлся непререкаемым авторитетом, примером для подражания. Волевой, принципиальный и кристально честный Бахий Раметов посвятил свою жизнь обеспечению правопорядка.

В разные годы он возглавлял Кунградский, Чимбайский, Нукусский районные отделы внутренних дел, Нукусский горотдел. В отставку вышел в звании подполковника. Со временем сын пошел по стопам отца.

Службу в ОВД М. Раметов начал с должности инспектора отдела охраны общественного порядка. Далее продолжил службу старшим инспектором по работе с личным составом МВД Каракалпакстана, старшим инспектором дежурной части городского отделения. В отставку вышел в 2004 году.

— До сих пор помню, как в 1981 году вызвали к руководству города и сообщили, что Министерство внутренних дел запрсило кадры для пополнения достойными сотрудниками, решено рекомендовать меня. Поблагодарив за



доверие, заверил, что подумаю над предложением. Позже, выслушав новость, отец сказал: «Сын, в таких вопросах следует при-

слушаться к сердцу. Если нет уверенности в том, что справишься, лучше не браться. Скажу одно — в органах внутренних дел

работа круглосуточная, если потребуется нужно трудиться 24 часа в сутки. Ты в этом мог убедиться на моем примере. Решать

тебе». Так что в профессию пришел по зову сердца, о чем не жалею. Слова отца повторил и своим сыновьям, когда пришло время им определяться, — говорит М. Раметов.

Заслуги М. Раметова отмечены нагрудными знаками «Ички ишлар органларининг фахрий ходими», «Ардаклы нураний» Жокаргы Кенеса Республики Каракалпакстан.

Вместе с супругой, Анаргул, они воспитали трех сыновей и дочь. Семью ветерана можно назвать династией. Старший сын Махмуд занимал должность заместителя начальника управления уголовного розыска МВД Каракалпакстана, возглавлял Караузьякский РОВД, в отставку вышел в звании подполковника. Младший — Идрис ныне служит рядовым сотрудником.

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
соб. корр.

Республика
Каракалпакстан.

■ Самаркандская область

ОТВЕСТИ ОТ НЕВЕРНОГО ШАГА

Преступность и правонарушения среди молодежи — одна из самых болезненных проблем общества. В Узбекистане вопросы дальнейшего повышения эффективности деятельности по предупреждению противоправных деяний в молодежной среде — в центре внимания.



На фото: заместитель начальника УКД ОВД города Самарканда подполковник Жамшед Кобиллов вручает грамоты участникам интеллектуального конкурса «Заковат».

В 215 махаллях Самарканда проживает свыше 119 тысячи молодых людей в возрасте от 14 до 30 лет. За так называемой трудной молодежью закреплена 42 ответственных руководителя. Особый акцент делается на состоящих на учете службы пробации, их в городе 112 человек. Также в центре внимания состоящие на профилактическом учете (это 69 молодых людей).

— Анализ показывает, что мелкие правонарушения, хулиганские выходки зачастую ведут к более серьезным противоправным деяниям, — говорит инспектор по особо важным делам областного управления профилактики правонарушений майор Журабек Сафаров. — Если вовремя не вывести человека из группы риска, то через некоторое время он может пополнить ряд криминальных лиц. Главная задача правоохранительных органов и органов власти — определить изменения в поведении молодого человека, устранить причины, побуж-

дающие его к совершению противоправного деяния.

По мнению руководителя городского отдела Агентства по делам молодежи Ф. Худоёровой, действенным способом в профилактике преступности является трудоустройство молодежи и обеспечение занятости. С начала года молодежными лидерами на местах проведено изучение и выявлено 879 безработных молодых людей. На данный момент 254 из них трудоустроены, 76 направлены на обучение, еще 79 получили субсидии, 18 получили кредиты для занятия предпринимательской деятельностью. Работа в данном направлении продолжается. В этом году впервые был проведен интеллектуальный конкурс «Заковат», участниками которого стала молодежь, взятая под опеку руководством третьего сектора. Конкурс объединил свыше 80 девушек и парней.

Замира БАЛТАЕВА,
соб. корр.



XIZMATLARDA

BAXTI BUTUN BO'LSIN AYOLNING

Samarqand shahar IIOFMB HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektori, katta leytenant Hulkar Muhammadiyeva asli pastdarg'omlik. 2018-yilda SamDUni tamomlagach, bir muddat maktabda o'qituvchi bo'lib ishladi. 2020-yilda Payariq tumanida xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektor lavozimidan xizmatni boshladi. 2 yildan buyon 8 mingdan ziyod talaba tahsil olayotgan (shundan 90 foizi qizlar) O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institutida xotin-qizlar bilan ishlash bo'yicha inspektor lavozimida xizmat qilmoqda.



– Bir qarashda talabalarda muammolar kamdek ko'rinadi, – deydi lavhamiz qahramoni. – Ammo yotoqxonada janjallar, mayda o'g'irliklar, albatta, firibgarlik holatlari va muhabbat mojarolari uchrab turadi. Aytish joizki, yil boshidan buyon sevgan yigiti yoki turmush o'rtog'idan jabr ko'rgan 14 nafar xotin-qizga himoya orderi berildi.

Ichki ishlar organlaridagi xizmatim davomida yanada irodali bo'lishni o'rgandim. Hayot haqiqatlari har qanday odamni atrofdagi kamchiliklarga ko'zlarini kattaroq ochib qarashga majbur qiladi. Ayniqsa, bizning sohada kuchli irodaga ega bo'lish, qat'iyat, kerakli

vaziyatda mulohaza qilib, javob qaytara olish va kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik zarur. Ofitserlik sha'ni va fuqarolar oldidagi burch men uchun shunchaki oddiy so'z emas.

Kasbining o'ziga yarasha murakkab jihatlari qaramay, Hulkar hamisha o'z ishidan zavq oladi. Qiyin damlarda uni yaqinlari, ayniqsa, turmush o'rtog'i qo'llab-quvvatlaydi. Shu bois o'z oilasini olg'a intilishi uchun kuch baxsh etuvchi qo'rg'on, deb biladi. Xizmati davomida ham ayollarning baxti butun bo'lishiga, oila qo'rg'onining mustahkamligini saqlashga harakat qiladi.

Zamira BOLTAYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

QO'SHQANOTLAR

HAM XIZMATDA, HAM HAYOTDA IBRAT



Denov tumani IIB Ekspert-kriminalistika guruhi katta eksperti, kapitan Olimjon Vahobov hamda tuman IIB HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektori, kapitan Guljamol Elmurodovaning oilasi yaqinda ibratli oila sifatida tuman hokimligi tomonidan taqdirlandi.

Oilaboshi Olimjon Vahobov IIV Akademiyasini tamomlab, 2018-yildan ichki ishlar organlarida ekspert-kriminalistika yo'nalishida xizmat qilmoqda. U o'zining tirishqoqligi, kasbini puxta bilishi bilan kasbdoshlari orasida hurmat qozongan. Hozirda tuman IIB Ekspert-kriminalistika guruhi katta eksperti lavozimida faoliyat ko'rsatayotgan O.Vahobov tezkor-tergov guruhi bilan voqea joylariga chiqib, ko'plab

jinoyatlarning fosh etilishida jonbozlik ko'rsatgan. Jumladan, birgina joriy yilning o'tgan davri mobaynida u 91 marotaba tergov harakatlarida faol ishtirok etgan.

Kapitan Guljamol Elmurodova ham hududdagi xotin-qizlar muammolarini yechish, oilaviy nizolarga barham berish, ayollar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha ko'plab natijalarga erishib kelmoqda.

Muhimi, juftlik ham xizmat faoliyatida, ham oilaviy hayotda bir-birini tushunib, qo'llab-quvvatlagan holda boshqalarga namuna ko'rsatmoqda.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

FAXR

RAQIBLARNI DOG'DA QOLDIRIB

Joriy yilning 24–25-may kunlari Rossiya Federatsiyasining Moskva shahrida xizmat vazifalarini bajarish vaqtida halok bo'lgan xodimlar xotirasiga bag'ishlab armiya va politiya xodimlari o'rtasida sportning dzyudo turi bo'yicha XVIII xalqaro turnir bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston, Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi hamda Rossiyaning IIV, FVV, Rosgvardiya, Jazoni ijro etish hamda Qo'riqlash federal xizmatlari va Mudofaa vazirligining jami 15 ta terma jamoasi tarkibida 200 nafarga yaqin sportchilar o'zaro bellashdi.

Quvonarlisi shundaki, O'zbekiston Respublikasi IIV terma jamoasi barcha raqiblarini dog'da qoldirib, ketma-ket ikkinchi marotaba shohsupaning eng yuqori pog'onasidan joy oldi.

Xalqaro turnir yakunida g'oliblar medallar va kubok bilan taqdirlandi. IIV «Jar» sport-sog'lomlashtirish majmuasida terma jamoani kutib olishga bag'ishlangan tantanali tadbir bo'lib o'tdi.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.



■ Ферганская область

СЕМЕЙНЫЙ ОЧАГ МАЙОРА АСКАРОВА

Для создания счастливой семьи наряду с материальным достатком важна здоровая духовная среда. Именно такую гармоничную ячейку общества удалось создать старшему инспектору ОПП СОБ Учкуприкского РОВД майору Бекзоджону Аскарону.

В органах внутренних дел Б. Аскарон служит уже 10 лет. Столько же лет в браке с Гулзодой Шокировой. Вместе они воспитывают троих детей.

Старшая дочь Гулшодахон учится в седьмом

классе, сын Бахтиёржон – второклассник, а младшенькая – Хушнозахон посещает детский сад.

Майор Бекзоджон Аскарон, придя домой после работы, всегда интересуется, что нового дети узнали, какие прочитали книги. А хранительница домашнего очага старается привить им интерес к истории, подбирает доступную для понимания литературу.

– В служебном доме, выделенном нам в махалле Пучугой, организовали небольшую библиотеку. Любимое наше занятие – поход в книжные магазины. Каждый раз возвращаемся с новыми изданиями, – говорит майор Аскарон. – Книги не только обогащают духовный мир детей, но и имеют воспитательное значение, содействуют формированию характера, вкусов, учат быть целеустремленными.

Дружное семейство увлеченно благоустраивает уютный двор. На небольшом приусадебном участке произрастают плодовые деревья, благоухают цветы.

В 2020 году, когда майор Б. Аскарон был назначен

старшим инспектором в махаллю, криминогенная ситуация здесь оставляла желать лучшего – было зафиксировано 17 преступлений. Совместные усилия, предпринятые с активом махалли, индивидуальный подход в работе с гражданами позволили улучшить показатели. В результате в начале текущего года в махалле, переведенной в «зеленую» категорию, не совершено ни одного преступления.

Недавно Аскарон принял активное участие в смотре-конкурсе «Образцовая семья», организованном среди сотрудников органов внутренних дел в целях пропаганды семейных ценностей и традиций, воспитания патриотизма, повышения культуры книжочтения. Став победителями областного этапа, они достойно выступили и на республиканском этапе.

– Горжусь тем, что являюсь супругой человека, стоящего на страже закона и правопорядка, – говорит супруга майора. – Надеюсь, что и сын пойдет по стопам отца.

Абдувосит СИДИКОВ,
соб. корр.



■ Джизакская область

УТВЕРЖДЕН «ЗЕЛЕНЫЙ» СТАТУС

Старший инспектор профилактики группы профилактики правонарушений ОВД № 2 отдела внутренних дел Шараф-Рашидовского района майор Бахримурод Эргашев отвечает за махаллю Катортол. Территория ответственности не самая простая. Махаллю закрепили за старшим инспектором, учитывая его большой опыт.

В махалле проживают 15 ранее судимых, пять лиц, злоупотребляющих спиртными напитками, еще столько же осужденных и состоящих на учете службы пробации, десять неблагополучных семей. Майор Б. Эргашев на постоянной основе проводил с ними профилактическую работу, наладил тесное сотрудничество с «махаллинской семеркой».

– Совместная деятельность дала положительные результаты. За истекший период на вверенном участке не допущено совершения

ни одного преступления, – говорит наш собеседник.

Большое внимание старший инспектор уделяет решению проблем населения. Им внесено 25 заключений по итогам изучения насущных вопросов граждан. На объектах торговли и сферы услуг, расположенных на территории махалли, майор также проводит профилактические мероприятия. Можно уверенно сказать, что Катортол прочно утвердился в категории «зеленых» махаллей.

Алижон АБДУСАТТОРОВ,
соб. корр.



KASB FIDOYILARI



Sirdaryo viloyati IIB IIB JXX YHXB bo'linmalari ma'muriy amaliyot bo'linmasi kichik inspektori, safdor Burhoniddin Nuraliyev yo'llarda harakat xavfsizligini ta'minlash jonkuyari. U yo'llarda tirbandliklar sodir bo'lganida, svetoforlar ishlamay qolganida birinchi bo'lib yetib boradigan mas'uliyatli xodimlardan biri.

Yaqinda Guliston – Mirzaobod yo'lida xizmat vazifasini o'tayotganida «Kobalt» va «Matiz» avtomobillari to'qnashib ketganiga duch keladi. Inspektor og'ir tan jarohati olgan «Kobalt» haydovchisi 52 yoshli G.U. ga zudlik bilan birinchi yordam ko'rsatib, vaqtni boy bermay, kasalxonaga yetkazdi. Natijada haydovchining hayoti saqlab qolindi.

O'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

QIBRAY TUMANI IIB FAOLIYATIDAN

Toshkent viloyatining Qibray tumani o'zining go'zal tabiati va bahavoligi bilan barchani o'ziga maftun etuvchi so'lim go'shalardan biridir. Mahalliy rivoyatlarga qaraganda, tuman nomi qadimgi "Qiray" nomli turkiy qabiladan kelib chiqqan. Qibray tumani 1933-yilning 1-dekabrida tashkil etilgan. U 1933–1991-yillarda Orjonikidze, 1991-yildan esa Qibray tumani deb nomlangan. 1962-yilning 24-dekabrida Kalinin, ya'ni, hozirgi Zangiota tumani bilan birlashtirildi. 1964-yil 31-dekabrida yana qaytadan tuzildi. Tuman janubi-g'arbdan Toshkent shahri, janubdan Yuqorichirchiq, sharqdan Bo'stonliq, g'arbdan Toshkent tumani, shimoldan esa, Qozog'iston Respublikasi bilan chegaradosh. Maydoni 0,56 ming kv.km. Hududda Qibray va Salor nomli 2 ta shaharcha, 68 ta mahalla bor. Aholisi 200 mingga yaqin. Tuman markazi – Qibray shaharchasi.

Tuman IIB xodimlari tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash asnosida fuqarolarni qiynayotgan muammolarni bartaraf etayotir.



– Joriy yil boshidan hozirgacha 660 ta murojaat kelib tushdi, – deydi tuman IIB murojaatlar bilan ishlash guruhi katta inspektori, katta leytenant

Durbek Mahkamov. – Murojaatlarning asosiy qismi firibgarlik, qarzdorlik holatlari, mol-mulk va ish haqi masalalari-dagi kelishmovchiliklardan iborat.

Ekspert-kriminalistika guruhi katta eksperti, mayor Islom Urazaliyev o'n olti yildan buyon ichki ishlar organlari tizimida. Avvaliga huquqbuzarliklar profilaktikasi va tergov xizmatlarida faoliyat ko'rsatgan. Hozir ekspert-kriminalistika sohasida izlanib, ko'plab yoshlarga ustozlik ham qilib kelmoqda.



Tuman IIB JXX JTSB katta inspektori, kichik serjant Bekzod Xayrullayev boshqa safdoshlari qatori odamlarning haqiqiy suyanchiga aylanish niyatida o'z ustida izlanib, sohaga oid bo'lgan bilimlarini mustahkamlab, ustoz – podpolkovnik Davron Karmonovning o'gitlariga quloq tutib kelayotir.



– Eng muhimi, tuman aholisining tinchlik-xotirjamligi mustahkamlanib, xodimlarimizning o'z xizmat faoliyatiga bo'lgan ishonchi yanada ortib bormoqda, – deydi IIB boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik Davron Mirziyotov.

Mixli SAFAROV,
o'z muxbirimiz.

QO'SHSAHIYADA

MUAMMOLAR YECHIMI HAMKORLIKDA

Qiziltepa tumani 3-sektor mutasaddilari «Ijtimoiy profilaktika kuni» doirasida mahallalar kesimida, ijtimoiy-moddiy, tibbiy himoyaga muhtoj fuqarolar, yolg'iz keksalar holidan xabar olinmoqda. Shuningdek, ko'chalar ta'mirlanib, maktablar va bog'chalarda ta'lim-tarbiya olish sharoitlarini yaxshilash choralari ko'rilyapti.



– Hududda tadbirkorlikni yo'lga qo'yishni maqsad qilgan yoshlar, xotin-qizlarga, moddiy yetishmovchilikdan qiynalayotgan oddiy fuqarolarga yordam qo'lini uzatishga harakat qilamiz. Maqsadimiz tumanda tinchlik-osoyishtalik-

ni saqlash barobarida, aholining turmush sharoitlarini yaxshilash, muammolariga birgalikda yechim topish, – deydi tuman IIB HPB ijtimoiy profilaktika guruhi katta inspektori, katta leytenant Shohrux Xudoynazarov.

Sektor mutasaddilarining hamkor tashkilotlar bilan birgalikdagi sa'y-harakatlari esa o'z samarasini beryapti. Buni, avvalo, aholining turmush darajasi oshayotganida, odamlar kelajakka umid bilan qarayotganida ko'rish mumkin.

ADASHGANLARGA TO'G'RI YO'L KO'RSATIB



Inson o'z kasbini sevib, zimmasidagi vazifasini sidqidildan, mas'uliyat bilan ado etishining o'zi bir fidoyilikdir. Kapitan Nodir Adizov ham ana shundaylar sirasiga kiradi.

U ichki ishlar organlaridagi ilk xizmat faoliyatini 2014-yilda jazoni ijro etish muassasasidan boshlagan. Ayni paytda Navoiy shahar IIB JXX probatsiya guruhi inspektori lavozimida xizmat qilib kelmoqda.

Probatiya guruhi hisobida 506 nafar shaxs bo'lib, ular orasida xotin-qizlar ham bor. Kapitan Nodir Adizov ularning dunyoqarashini ijobiy tomonga o'zgartirishda, muammolarini

hal etishda hududiy profilaktika inspektorlari, mahalla, xotin-qizlar faollari va yoshlar tashkilotlari vakillari bilan yaqindan hamkorlik qiladi.

– Inson qadri ulug'lanayotgan jamiyatimizda bilib-bilmay jinoyat ko'chasiga kirib qolganlar taqdiriga panja orasidan qarab bo'lmaydi. Buni biz o'z faoliyatimiz orqali namoyon etyapmiz. Natijada probatsiya nazoratidagi shaxslarning ko'pchiligi xatolarini tushunib, to'g'ri xulosa chiqarib, kasb o'rganib, halol mehnat qilib, tinch-totuv yashashmoqda. Buni ko'rganimda kasbimdan faxrlanib ketaman, – deydi qahramonimiz.

SURATLI LAVHALAR



Viloyat IIB JXX JTSB PPX batalyoni xodimi, safdor Jamshid Mansurov zimmasidagi vazifalarini sidqidildan bajarishi, xushmuomalaligi bilan hamkasblari hurmatini qozongan. U yaqinda xizmat o'tayotib, ko'chada adashib qolgan bolani topib, otasiga topshirdi.



Viloyat IIB JXX YHXB YPX inspektorlari – safdorlar Qahramon Ergashev hamda Shohrux Abdullayev yo'llarda harakat xavfsizligini ta'minlash borasida jonbozlik ko'rsatib kelishmoqda. Bundan tashqari, ular haydovchilar hamda piyodalar o'rtasida o'tkaziladigan targ'ibot-tushuntirish ishlarida hamisha faol ishtirok etishadi.

NAVOIY VILOYATI

REYD CHOG'IDA

Bozorlarimizda sotilayotgan mahsulotlarning sifatli bo'lishi, sog'lig'imizga zarar yetkazmasligi o'ta muhimdir. Aks holda turli yuqumli kasalliklar kelib chiqishi, tarqalishi mumkin. Bunday ko'ngilsizliklarning oldini olishga nafaqat sanitariya-epidemiologiya nazorati xizmati mutaxassislari, balki ichki ishlar organlarining tegishli sohaviy xizmati xodimlari ham mas'uldir. Quyida biz ana shu soha vakillari – Navoiy viloyati IIB JXX JTSB Karantin tadbirlarini ta'minlash guruhi xodimlari faoliyati haqida hikoya qilamiz.

– Hayvon go'shtlari, sut va sut mahsulotlarining sifatsizligi fuqarolarimiz sog'lig'iga jiddiy xavf tug'dirishi mumkin. Xarid vaqtida ko'pchilik mahsulotlarning sanitar holatiga e'tibor bermaydi yoki tegishli hujjat-

larini so'ramaydi. Shuning uchun xodimlarimiz muntazam nazorat, reydlar, targ'ibot tadbirlarini olib borishadi. Shu o'rinda hamyurtlarimizdan hayvon go'shtlarini va sut mahsulotlarini maxsus litsenziyaga ega joylardan olishlari hamda mahsulotlarning sanitariya holatiga e'tibor qilishlarini so'rab qolamiz, – deydi viloyat IIB JXX JTSB Karantin tadbirlarini ta'minlash guruhi komandiri, katta leytenant Zafar Xayriyev.

Mazkur soha vakillari tomonidan joriy yilda 13 tonnadan ortiq go'sht va go'sht mahsulotlari, 2 tonnaga yaqin sut mahsulotlari, 500 kg baliq, 1500 donadan ortiq tuxum hamda 1 tonnaga yaqin tuzlama mahsulotlari iste'molga yaroqsiz ekanligi aniqlanib, tegishli tartibda yo'q qilindi.



ENG KATTA BAXT



IIV Navoiy akademik litseyida qariyb 7 yildan buyon o'quvchilarga jismoniy tarbiya fanidan saboq berib kelmoqdaman. Litseyimizda sport bilan shug'ullanmagan o'quvchining o'zi yo'q. Ularning jismoniy qobiliyatlarini yuzaga chiqarishda ko'maklashish menga huzur bag'ishlaydi.

Litsey o'quvchilarining tinimsiz o'z ustida ishlashi, ular bilan mashg'ulotlarni yuqori saviyada o'tayotganimiz o'z samarasini ko'rsatmoqda. Ayni paytda o'quvchilar orasida 3 nafar jahon chempioni, 10 nafar Osiyo chempioni hamda 27 nafar O'zbekiston chempioni yetishib chiqqanligi ham fikrimning tasdig'idir.

Yaqinda Toshkent shahrida sportning Ashxara-karate turi bo'yicha o'tkazilgan Osiyo

championatida 1-bosqich o'quvchisi Alishox Sultonov 55 kg vazn toifasida g'olib chiqdi. Shahrizoda Bahridinovna esa shahrimizda AYTEKE biy tavalludining 380 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro madaniy tadbirda shaxmat musobaqasida faxrli ikkinchi o'rinni egalladi.

O'quvchilarimiz kelajakda haqiqiy huquq-tartibot himoyachisi, osoyishtalik posboni bo'lishlariga ishonaman. Ularning erishayotgan yutuqlaridan faxrlanaman. Zero, ustoz uchun shogirdlarining muvaffaqiyati – eng katta baxt.

Jamoliddin XOLIQOV,
IIV Navoiy akademik litseyi o'qituvchisi.

ZARURIY HUJJAT

Fuqarolikni belgilovchi va shaxsni tasdiqlovchi hujjat har bir inson uchun uning haq-huquqlarini ta'minlashda zarurdir. Ammo ushbu hujjatga e'tiborsizlik bilan qarab, uni ehtiyot qilmaydiganlar ham uchrab turadi. Nurota tumani IIB migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish guruhi xodimlari joylarda aholi o'rtasida targ'ibot-tushuntirish ishlari olib borish, pasport-viza rejimini tekshirish jarayonida bunday holatlarni aniqlab, aybdorlarga nisbatan tegishli choralar ko'rishyapti.



Nogironligi yoki keksaligi sabab tuman IIB M va FRGga kela olmaydiganlarning xonadonlariga borilib, ID karta rasmiylashtirib berilyapti. Masalan, Nurota tumani «Tinchlik» mahallasida istiqomat qiluvchi 94 yoshli Anor momo Musulmonovaga ham ushbu hujjat uning xonadonida topshirildi. Tabarruk onaxon hujjatni qo'lga olar ekanlar, xodimlar haqqiga uzundan-uzoq xayrli duolar qildi.

Shuningdek, tumanning «Oqmachit» mahallasida yashovchi Bibi aya Oyxo'jayeva hamda «Sentob» mahallasida istiqomat qiluvchi To'y ota Husenovlar ham hech qanday ovoragarchiliklarsiz, o'z xonadonlarida shaxslarini tasdiqlovchi hujjatga ega bo'lishdi.

Tuman IIB M va FRG xodimlari aholining pasport tartiboti bilan bog'liq barcha murojaatlarini o'z vaqtida ijobiy hal

etishga harakat qilishyapti. Jumladan, ular tomonidan fuqarolarga ID kartalarini, xorijga chiqish pasportlarini rasmiylashtirish, ularni ro'yxatga qo'yish, ro'yxatdan chiqarish bo'yicha ham samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Joriy yilning o'tgan davri ichida 16 yoshga to'lganligi munosabati bilan 789 nafar o'g'il-qizga, biometrik pasport o'rniga esa 2518 nafar fuqaroga ID kartalar topshirildi.

Qo'shsahifa materiallarini o'z muxbirimiz Mahliyo XOLOVA tayyorladi.

Muxbirlarimiz xabar qiladi

NAMANGAN VILOYATI



Namangan shahar IIB JXX Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limi tergovga qadar surishtiruv guruhi inspektori, kapitan Nuriddin Saydullayevga fuqaro tomonidan pora taklif qilindi. Qat'iyatli xodim avvaliga fuqaroga bu ishi qonunga xilof ekanini tushuntirdi, lekin har bir ishni pul bilan hal qilish mumkin, degan aqidaga amal qilib yashayotgan kimsaning fahmi oddiy haqiqatni anglab yetmagan edi...

Ma'lum bo'lishicha, kapitan Nuriddin Saydullayev ish yurituvda bo'lgan fuqaro B.Turg'unovning arizasi yuzasidan tergovga qadar tekshiruv harakatlarini olib borish

davomida «Equinox» rusumli avtomashinani vaqtincha jarima maydoniga joylashtirgan. Javobgar fuqaro O.A. ushbu avtomashinani jarima maydonidan chiqarib berish evaziga 500 AQSH dollari miqdorida pora taklif qilgan. Tushuntirishlar kor qilmagach esa...

O'tkazilgan tezkor tadbir davomida fuqaro O.A. Namangan shahridagi «Ravnaq» MFY binosi oldida kapitan N.Saydullayevga 500 AQSH dollari miqdoridagi pulni pora tariqasida berayotgan vaqtida ashyoviy dalillar bilan ushlendi.

Hozirda holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atilib, tergov harakatlari olib borilmoqda.

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI

Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV JXX JTSB Kinologiya bo'linmasi tomonidan jamoat tartibini saqlash, jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatlarni xizmat itlari ishtirokida fosh etish bo'yicha qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Hozirda Kinologiya bo'linmasida 36 ta xizmat iti mavjud. Ular umumiy va maxsus kurslar bo'yicha o'qitilib, xizmatda unumli foydalanib kelinmoqda.

Bo'linma xodimlari respublika miqyosida o'tkazilayotgan ko'rik-tanlovlarda munosib qatnashishmoqda. Jumladan, joriy yilning 2-4 may kunlari



bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimiga kiruvchi vazirlik va idoralararo «Dog biatloni» musobaqasida O'zbekiston Respublikasi IIV terma jamoasi tarkibida bo'linma kichik

xususan, joriy yilning o'tgan davrida bo'linma xodimlari 140 tavoqea joyiga chiqib, shundan 58 ta jinoyat xizmat itlari ishtirokida ochildi. Ulardan 30 tasi o'g'ri-lik, 24 tasi giyohvandlik, qolganlari boshqa turdagi jinoyatlardir.

inspektor-kinologi, safdor Aydos Abdireymov vazirlik jamoasining 2-o'rinni egallashiga o'z hissasini qo'shdi. U musobaqaning yakkalik bahslarida 3200 metr masofaga yugurishda 2-o'rinni egalladi.

QASHQADARYO VILOYATI



Qarshi shahrida voha huquqni muhofaza qiluvchi organlari shaxsiy tarkibi o'rtasida ko'pkurash bo'yicha IIV «Dinamo» JTSJ viloyat kengashi birinchiligi bo'lib o'tdi.

Sportning yugurish, tosh ko'tarish, to'sinda tortinish kabi turlari bo'yicha bo'lib

o'tgan bahslarda ishtirokchilar bor kuch va mahoratlarini ishga solib, g'oliblik uchun kurashdilar.

Musobaqa natijalariga ko'ra, viloyat Ichki ishlar boshqarmasi jamoasi barcha raqiblarini dog'da qoldirib, g'oliblikni qo'lga kiritdi. Umumjamo'a hisobida navbatdagi sovrinli o'rin-

lar esa viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi va Ichki ishlar vazirligi Qorovul qo'shinlariga qarashli Qarshi shahridagi 7533-sonli harbiy qism jamoalariga nasib etdi.

G'olib va sovrindorlar diplom, medal, qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.



EKOLOGIK MADANIYAT: BUGUN VA KELAJAK

Insoniyat o'zining tadrijiy rivojlanish bosqichida bevosita tabiat bilan ekologik munosabatda bo'lishi va undan o'zboshimchalik bilan foydalanishi oqibatida jahon miqyosidagi ekologik muammolarning kelib chiqishiga sababchi bo'ldi, desak, aslo mubolag'a emas.

Ekologik madaniyat – ongli ravishda shakllanib boradigan tuyg'u bo'lib, uni hayotimiz davomida amaliy harakatlrimiz bilan rivojlantirib borishimiz va unga amal qilishimiz lozim. Sodda qilib aytganda, ekologik madaniyat atrof-muhitga nisbatan ijobiy munosabatimiz, ya'ni tabiat va atrof-muhitni asrash oilada, maktabda, mahallada, har bir jamoada shakllanib boradigan qadriyatdir.

Mamlakatimizda tabiiy resurslardan foydalanishning huquqiy me'yori va miqdorini belgilash hamda ushbu talablarga rioya etilmagan holatlarda huquqiy javobgarlik choralarini qo'llash masalalari bilan bog'liq munosabatlar tartibga solingan. Xususan, Asosiy qonunimizning 62-moddasida «Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar», 68-moddasida esa «Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidir» degan konstitutsiyaviy-huquqiy normalarning belgilanganligi ham mamlakatimizda istiqomat qilayotgan fuqarolarning tabiiy resurslarga nisbatan ekologik

va kodekslarda huquqiy normalar o'z aksini topgan.

Qayd etish kerakki, milliy qonunchiligimizda ekologiya sohasidagi huquqiy munosabatlarning barcha jihatlarini tartibga solingan bo'lsa-da, ekologik ta'lim yo'nalishida ilg'or milliy va xorijiy tajribani o'rganish, ular asosida ta'lim oluvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning aniq parametrlari ishlab chiqilmaganligi atrof-muhitga va umuman tabiatdagi tiklanmaydigan tabiiy resurslarga bo'lgan munosabatlarning ijobiy emasligini bildiradi.

Aholining ekologik madaniyatini shakllantirish va bu boradagi ishlarni takomillashtirish maqsadida Harakatlari strategiyasi doirasida davlatimiz rahbarining 2019-yil 30-oktabrdagi «2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining

sig'a ifloslantiruvchi moddalar chiqarilishini 10 foizga kamaytirish, transport vositalarining 80 foizini gaz-ballon yoqilg'isi va elektr energiyasida ishlashga o'tkazish, o'rmonzorlar bilan qoplangan o'rmon fondi hududini 4,5 mln gektargacha kengaytirish, IV toifadagi qo'riqlanadigan tabiiy hududlar maydonini 12 foizgacha kengaytirish, Qizil kitobga kiritilgan va pitomniklarda parvarish qilingan chiroyli tuvaloqlarni tabiatga qo'yib yuborishni yiliga 4000 gacha ko'paytirish, aholini qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib ketish xizmatlari bilan 100 foiz qamrab olish, hosil bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash hajmini 65 foizgacha ko'paytirish, alohida xususiyatga ega chiqindilar (tarkibida simob bo'lgan chiqindilar, avtoshinalar, akkumulyatorlar, ishlatib bo'lingan moylar, qadoqlar chiqindilari va boshqalar)ning qayta ishlash hajmini 30 foizgacha ko'paytirish kutilmoqda.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi «O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori asosida maktabgacha ta'lim muassasalari, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalari, professional ta'limda, oliy ta'limda, oliy ta'limdan keyingi ta'limda, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishda, maktabdan tashqari ta'lim tizimlarida ekologik ta'limni uzluksiz yo'lga qo'shish belgilandi. Shuningdek, Konsepsiyaning 6-bobi bilan oliy ta'lim tizimida ekologik ta'limni takomillashtirish bo'yicha bir qator ustuvor vazifalarni amalga oshirish rejalashtirildi.

Prezidentimizning 2023-yil 23-noyabrdagi «Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, «Yashil makon» umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoniga ko'ra, mamlakatimizda «Yashil makon» elektron platformasi yaratildi va amalda faoliyati yo'lga qo'yildi. 2024-yil 29-mart kuni davlatimiz rahbari raisligida bo'lib o'tgan «Yashil makon» loyihasi doirasidagi ishlar hamda chiqindilarni boshqarishni takomillashtirish masalalari to'g'risida»gi videoselektor yig'ilishida esa «Yashil makon» umummilliy loyihasini amalga oshirish, uning doirasida yiliga

125 mln tup daraxt va buta ko'chatlarini ekish belgilanganligi, xususan, joylarda 444 ta yashil bog' va 160 ta jamoat parkini tashkil qilish va «Mening bog'im» loyihasini ishga tushirish zaruriyati mavjudligi alohida ta'kidlab o'tildi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash kerakki, ekologik madaniyatni shakllantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

birinchidan, insonning yashash muhiti bo'lmish biosfera va ekologiya tizimlari barqarorligini saqlab qo'llash, odamlarning ekologik jihatdan xavfsizligi, inson va uning kelgusi avlodlari genetik fondi haqida g'amxo'rlik qilish;

ikkinchidan, fuqarolarning hayot uchun qulay tabiiy muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlash, barcha turdagi ta'lim muassasalarida ekologiya ta'limini yo'lga qo'yish majburiyligi;

uchinchidan, jamiyatning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini ilmiy asoslangan holda uyg'unlashtirish;

to'rtinchidan, tabiatdan maxsus foydalanganlik uchun haq to'lash va umumiy asoslarda foydalanganlik uchun haq to'lamaqlik mexanizmlarini ishlab chiqish;

beshinchidan, ekologiya ekspertizasi o'tkazishning majburiyligini ta'minlash va monitoringini olib borish;

oltinchidan, tabiatdan oqilona foydalanishni va tabiatni muhofaza qilishni rag'batlantirish tizimini keng yo'lga qo'yish natijasida «Ekota'lim», «Ekomahalla», «Ekoshahar», «Ekohudud» huquqiy maqomini ommaviy joriy etish;

yettinchidan, tabiiy resurslarni tiklash zarurligi, atrof tabiiy muhit va inson sihat-salomatligi uchun zararli, tiklab bo'lmas oqibatlarga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish;

sakkizinchidan, tabiatni muhofaza qilish sohasida milliy, regional va xalqaro manfaatlarni uyg'unlashtirish;

to'qqizinchidan, tabiatni muhofaza qilish qonunchiligi talablarini buzganlik uchun javobgarlikka tortish masalasini soddalashtirish.

Oybek XOLMO'MINOV,
IIV Akademiyasi dotsenti,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa
doktori, podpolkovnik.



madaniyatga ega bo'lishini talab qiladi.

Bundan tashqari, foydalanishimiz nazarda tutilgan tabiiy resurslar alohida milliy qonunlar bilan huquqiy tartibga solinganligi ham muhim ahamiyatga ega. Jumladan, tabiatni va atmosfera havosini muhofaza qilish, suvdan foydalanish, ekologik ekspertiza, yer osti boyliklari, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, ekologik nazorat, o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish, hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risidagi o'nga yaqin qonunlar

Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmoni imzolandi va amalga tatbiq etildi. Mazkur farmon asosida 2030-yilga qadar kutilayotgan natijalar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: Orol dengizining qurigan tubining O'zbekistondagi qismida o'rmonzorlar maydonini uning jami hududiga nisbatan 60 foizgacha yetkazish, qishloq xo'jaligida suv resurslarini yo'qotishni 10 foizga kamaytirish, qishloq xo'jaligida suv iste'molini (solishtirma gektarga nisbatan) 15 foizga kamaytirish, oqova suvlarini tozalash samaradorligini 80 foizgacha oshirish, atmosfera havo-

Урок духовности и просвещения

ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА: СЕГОДНЯ И ЗАВТРА

Экологическая культура представляет собой систему ценностей, знаний, норм, направленных на устойчивое взаимодействие с экосистемами. Она олицетворяет осознанное стремление человека к балансу между своими потребностями и потребностями природы.

Экологическая культура – не просто ответственность перед природой, это стремление к лучшему будущему. Экологическое просвещение и действия каждого из нас становятся ключом к установлению гармонии с природой, созданию благоприятного окружающего мира для следующих поколений.

Ключевой аспект значения экологической культуры – ее роль в сохранении природы и снижении загрязнения окружающей среды, в уменьшении негативного воздействия человека на экосистемы.

Экологическая культура также играет важную роль в борьбе с изменением климата. Она способствует повышению осведомленности о проблемах, связанных с глобальным потеплением, побуждает к принятию мер для уменьшения ее отрицательных последствий.

Экологически грамотные люди воспитывают подрастающее поколение в уважении к природе. Экологическая культура не просто призывает к заботе о природе, она ставит перед каждым из нас непреложную задачу – нести ответственность за будущее.

В наше время экологические проблемы, выражающиеся в изменении климата, разрушении экосистем и др., стали более острыми, чем когда-либо. В связи с этим внедрение экологических принципов в повседневную жизнь – настоятельная необходимость.

В Узбекистане последовательно осуществляются комплексные меры по обеспечению экологической безопасности, рациональному использованию природных ресурсов, внедрению цифровых технологий в сферу «зеленого» развития и др.

Значимым шагом в укреплении правовой основы деятельности в указанных направлениях стало издание 31 мая 2023 г. Указа Президента «О мерах по трансформации сферы экологии и охраны окружающей среды и организации деятельности уполномоченного государственного органа», а также постановления Президента «О мерах по эффективной организации

деятельности Министерства экологии, охраны окружающей среды и изменения климата».

В соответствии с данными документами на сегодняшний день осуществляются меры по кардинальному улучшению экологической обстановки в стране, снижению нагрузки выбросов в атмосферу, недопущению бесконтрольного использования подземных вод, противодействию деградации и опустыниванию земельных площадей и др. В центре внимания вопросы состояния полигонов отходов, приведения их в



соответствие с экологическими и санитарными требованиями.

Органы исполнительной власти, ОВД, иные правоохранительные и контролирующие органы всемерно содействуют в выполнении данных задач. При этом существенную помощь оказывают члены объединений неравнодушных граждан «Общественный экологический контролер».

Следует отметить, что Указом Президента в структуре Министерства экологии, охраны окружающей среды и изменения климата образована Инспекция государственного экологического контроля, в системе Генпрокуратуры – Управление по надзору за исполнением законодательства в сфере экологии, охраны окружающей среды и лесного хозяйства, что свидетельствует об особом внимании государства к данным вопросам.



В республике осуществляется инициированный главой государства общенациональный проект «Яшил макон» по кардинальному увеличению площади зеленых насаждений. В целях внедрения новой системы организации мероприятий проекта, развития лесоводства и лесного питомничества в 2024 г. из республиканского бюджета выделяются средства в размере 100 миллиардов сумов, в 2025 г. и в последующие

переработке на максимальном уровне вновь образующихся отходов без направления их на полигоны, внедрению в сферу практики циркулярной экономики.

Предусматривается направление излишков тепловой или электрической энергии, получаемой в результате сжигания отходов, на удовлетворение потребностей населения и производства, в том числе с применением «зеленого тарифа».

В целях повсеместного внедрения экологически безопасных технологий с текущего года проводится государственная экологическая экспертиза централизованных и децентрализованных инвестиционных проектов по видам деятельности, отнесенным к I-II категориям воздействия на окружающую среду.

Для развития у молодежи экологической культуры, воспитания ее в качестве защитников природы в образовательных учреждениях республики в рамках движения «Молодых экологов» проводятся конкурсы проектов «Любовь к природе», в СМИ – конкурс «Гимн природы», организовываются мероприятия

«Экозаковат», а также посвященные важным экологическим датам. В учебную программу общеобразовательных школ в рамках предметов по естественным наукам, физике, биологии, географии, химии введены специальные уроки-«экочасы».

Ежегодно сотни узбекистанцев, вносящие достойный вклад в дело охраны окружающей среды, защиты природы, рационального использования природных ресурсов, иницирующие инновационные проекты в сфере экологии, награждаются нагрудным знаком «Tabiat himoyachisi», что мотивирует соотечественников на деятельность по дальнейшему повышению экологической культуры в обществе.

Радик ТУМΠΑРОВ,
соб. корр.



SOHAVIY XIZMATLARDA

BARCHASI ELEKTRON TARZDA

Toshkent shahar IIBB YHXB 2-tumanlararo ro'yxatdan o'tkazish va imtixon olish bo'linmasi Chilonzor va Uchtepa tumani aholisiga xizmat ko'rsatadi. Bo'linmaga murojaat bilan kelayotgan fuqarolar o'z vaqtida va hech qanday qiyinchiliksiz muammolarini hal qilib ketishmoqda. Barcha amaliyotlar elektron tizim orqali bajarilgani bois har bir ariza sifatli va bekam-u ko'st hal etilishi ta'minlanmoqda.

– Joriy yil boshidan buyon 45000 dan ortiq transport vositalarini ro'yxatlash, qayta ro'yxatlash hamda qayta jihozlash bo'yicha xizmat ko'rsatildi, – deydi bo'linma boshlig'i, leytenant Sardor Sidiqov. – Bo'linmada xizmat ko'rsatish maxsus moslamalar yordamida avtomatlashtirilgan tizim orqali amalga oshiriladi. Xususan, davlat raqam belgilari avtomatik ravishda navbat bilan beriladi. Ma'lumotlar planshet moslamasiga kiritilib, elektron tarzda shakllantiriladi. Shuningdek,



Serjant Oybek Ahmadov texnik ko'rik o'tkazish jarayonida.



Katta serjant Sarvar O'roqov fuqarolarni qabul qilmoqda.

nogironligi bor, imkoniyati cheklangan murojaatchilar navbatsiz qabul qilinishi yo'lga qo'yilgan.

O'z ishiga mas'uliyat bilan yondashib, har bir hujjatni sinchiklab o'rganayotgan, avtomashinalar texnik ko'rigiga jiddiy e'tibor bergan holda, xizmat olib borayotgan xodimlarimizdan katta inspektor, katta serjant Sarvar O'roqov, inspektorlar – serjantlar Sharifjon Xayrulla-



Bo'linma boshlig'i, leytenant Sardor Sidiqov va inspektor, serjant Sharifjon Xayrullayev hujjatlarni ko'zdan kechirmoqda.

yev, Oybek Ahmadov hamda kichik serjant Nodir Tillayev nomlarini alohida qayd etib o'tish joiz.

Bo'linmaga avtomashina hujjatlari hamda davlat raqam belgilarining tushib qolishi yoki yaroqsiz holga kelib qolishi yuzasidan ham murojaatlar bo'lib turadi. Shunday paytlarda fuqarolarga ehtiyot bo'lishlari, loqaydlik va e'tiborsizlik salbiy oqibatlarga olib kelishi yuzasidan tushuntirish ishlari olib boriladi. Shuningdek, YPX inspektorlari tomonidan poytaxtimizdagi YPX maskanlarida va boshqa joylarda transport vositalarining davlat raqamlari qoidalarida ko'rsatilganidek qotirilmagan bo'lsa, maxsus moslamalar yordamida qotirish ishlari ham olib boriladiki, bu turli noxush holatlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, yo'l harakati qoidalariga ko'ra, davlat ro'yxatlash raqam belgilari ko'rinmaydigan, qalbakilashtirilgan, o'zgartirilgan bo'lsa, transport vositalaridan foydalanish taqiqlanishi belgilab qo'yilgan. Qonunchilikka binoan, davlat raqam belgilarini ko'rish imkoniyatini cheklaydigan, ularni anglashga to'sqinlik qiladigan turli ashyolar o'rnatish va qoplama surtish holatlari aniqlansa, bu qurilmalar musodara qilinib, fuqarolarga jarima qo'llashga sabab bo'ladi.

Shunday ekan, transport vositangiz, uning hujjatlari va jihozlariga jiddiy e'tibor qaratib, ularni ehtiyot qiling. Shundagina xotirjam va xavfsiz bo'lasiz.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

MAHALLA TINCH – YURT TINCH

«Saribozorcha» jinoyatchilik jilovlangan mahallalardan biri. Bu yerda katta leytenant Jasurbek Muhammadjonov xizmat olib boradi. Profilaktika katta inspektorining ta'kidlashicha, mahallada so'nggi 4 yil ichida birorta ham jinoyat sodir etilgani yo'q. Buning asosiy sababi aholi o'rtasida o'zaro hamjihatlik rishtalarining mustahkamligi bo'lsa, ikkinchidan, mahallaning eng gavjum ko'chalari va kirish joylariga 18 ta kuzatuv kamerasi qo'yilganidir.

– Kameralar yoniga ovoz uzatish tizimi ham o'rnatilganligi bizga juda qo'l keladi, – deydi katta inspektor. – Basharti, kamera nazoratidagi hududlarda tungi vaqtlarda fuqarolarning ko'p to'plangani, be-maqсад o'tirgani yoki spirtli ichimlik ichayotganini ko'rib qolsam, darrov ularni ogohlantiraman. Ovozimni eshitganlar tezda uylariga tarqalib ketishadi.

Jasurbek «Sarikanda», «Hazrati Ali», «Qal'a» mahallaridagi profilaktika inspektorlari bilan hamkorlik qiladi. Bu mahallarida ham joriy yilning o'tgan davrida jinoyatchilik umuman qayd etilmadi.

SO'XNING OSOYISHTA MASKANLARI

Serquyosh yurtimizning bir bo'lagi bo'lgan anklav So'x tumanida 27 ta mahalla mavjud bo'lib, joriy yilning o'tgan davrida 15 ta mahallada jinoyat qayd etilmadi. Umumiy jinoyatlar salmog'i esa 16 foizga kamaydi.



– Keyingi paytlarda sohaga axborot texnologiyalari va raqamlashtirish keng joriy etilishi natijasida fuqarolarning ogohlik darajasi ham

ortyapti, – deydi tuman IIB JXX HPB katta inspektori, mayor Firuz Isaqov. – Raqamlashtirish bilan bir qatorda, tuman hududida profilaktik tadbirlar

muntazam ravishda tashkil etilyapti. Profilaktik hisobda turuvchi 1 ming 95 nafar shaxs bilan alohida «xonadonbay» va «fuqarobay» usulida ish olib borilayotganligi natijasida bu toifaga kiruvchi fuqarolar tomonidan joriy yilning o'tgan davrida jinoyat sodir etilishiga mutlaqo yo'l qo'yilmadi.

Bundan tashqari, Qirg'iz Respublikasi bilan chegarada joylashgan mahallalarda, korxonalar va tashkilotlarda, ta'lim muassasalarida huquqiy-targ'ibot tadbirlari va ogohlikka chorlovchi uchrashuvlar o'tkazilmoqda.

Bu kabi chora-tadbirlar tumanda jinoyatchilik jilovlangan mahallalar sonining ko'payishiga, tinchlik va barqarorlikning yanada mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

▶ ЯҚИН ТАРИХ САҲИФАЛАРИДА

ЖАВОБСИЗ САВОЛЛАР ҚИЙНОҒИ

Кейинги йилларда миллатимиз қахрамонларининг шонли ҳаёти, уларнинг эл-юрт олдидаги хизматларини эътироф этиш, тарихий ҳақиқатларни англатиш йўлида катта қадамлар ташланди. Яқин ўтмишда халқимиз тарихига қонли саҳифалар билан битилган «Ўзбек иши», «пахта иши» каби ноҳақ айбловлар кўплаб инсонларнинг ёстиғини қуритди.

Гдлян ва Иванов бошчилигидаги тергов гуруҳи томонидан олиб борилган «Ўзбек иши» натижасида бўхтонлар гирдобиди ҳалок бўлган, отувга ҳукм қилинган, олис ўлкаларга сур-

Маъмуржон Аҳмедов Учқўрғон тумани терговчиси лавозимига таъинланади. Орадан ҳеч қанча вақт ўтмай, Гдлян ва Иванов бошчилиги-

жмдаги ишга жалб этиш мумкин эмаслигини айтди. Лекин рўйхат марказдан тасдиқланиб бўлган, уни ўзгартиришга ҳеч кимнинг юраги дов бермас эди, – дейди Маъмуржон ака ўша машъум йилларни хотирлаб. – Оилангдан, яқинларингдан узоқда ярим кечагача ертўлаларда айби нималигини билмай, кўзингга жавдираб қараб турган одамларни сўроққа тутиш қанчалар азоблигини бошига тушган одам билади. Бўлка нонни сувга бо-тириб еб, ичимиз ачишиб турса

хотирамга муҳрланиб қолган. Қўлимда иккита катта жиноят иши бўлиб, ҳар бирида 16 нафар шахсни тергов қилиш топширилган. Навоий вилоятдаги номдор район партия комитетининг секретари бўлиб ишлаган раҳбарга суд ҳукми ўқилган. Унинг уйида уч кун қолиб, уй полларини кўчириб ташлашди, том, ертўласигача излаб ҳеч нарса топишолмади. Ўшанда унинг қишлоқдошлари жуда ачинган, бир инсон умри увол кетганига ачиниш йиғлашган эди.

Эндиликда ўша хотиралар ҳақида ўйласам, бир ўйдан эзиламан. Бегуноҳ кетган юртдошларимизнинг уйғоқ руҳи «айбимиз нима эди» дея сўроққа тутгандек бўлди. Марказдан келган буйруқни бажармаслик кундага бошни қўйиш билан баробар эди. Бугун умр виждон азобида яшаш мен учун ҳам оғир кечди...

Маъмуржон ака 1988 йилдан 1992 йилгача Уйчи, Косонсой, Тўрақўрғон туман ИИБларида терговчи бўлиб ишлади. Унинг ўша йилларда олган руҳий изтироблари бир умрга таъқиб қилиб яшади, соғлиғи ёмонлашди. Шундан сўнг ўз аризасига биноан, захирага бўшатилади.

Ҳозирда у 66 ёшда, 6 нафар фарзанди бор.

Мустақилликдан сўнг ноҳақ қамалган юртдошларимизнинг оқланиши Маъмуржон аканинг қалбидаги ушалмай қолган орзуларини амалга оширди.

«Инсон дунёга бир марта келади, ўзингдан яхши ном қолдириш ҳаётнинг асосий маъноси бўлиши керак. Буни, айниқса, кексая боргач, янада теранроқ англаяпман. Бугунги эрк, озодлик халқимиз кўзига нондек суриб яшайдиган, ардоқлайдиган неъмат бўлиши керак. Бугунги дориламон ҳаёт яқин ўтмишда мард ва фидойи инсонлар жони эвазига қўлга киритилганини ҳис қилиб яшашимиз лозим», – дея хайрлашди биз билан суҳбатдошимиз...

**Гулчеҳра БУВАМИРЗАЕВА,
ўз мухбиримиз.**



гун қилинган юртдошларимиз ҳақидаги маълумотларни ўрганиш жараёнида тергов гуруҳига жалб этилган ички ишлар идоралари ходимлари билан ҳам суҳбатлашдик.

Янгиқўрғонлик Маъмуржон Аҳмедов ҳам тергов гуруҳида иштирок этган ходимлардан бири эди...

Маъмуржон Аҳмедов 1958 йилда Янгиқўрғон туманининг Ўзак қишлоғида туғилган. 1985 йилда ИИБ Тошкент олий мактабининг тезкор қидирув фаолияти йўналишини тамомлаган ёш йигит катта орзулар билан вилоятга қайтади. Лекин уни тақдирнинг оғир синовлари кутиб турарди.

даги тергов гуруҳи фаолиятида иштирок этиш учун жалб қилинади. Ҳали тажрибаси йўқ, иш бошлаганига уч ой бўлган Маъмуржоннинг қўлига давлат мулкни талон-торож қилиш билан боғлиқ жиноят ишини тергов қилиш топширилган эди. У топшириқни бажариш учун Навоий шаҳрига жўнаб кетади.

– Вилоят прокуратурасига чақиртириб, мени Навоийга ишга юбориш ҳақида буйруқ келганини айтишди. Республика Бош прокуратурасидан келган вакил стажировка ҳам ўтамаган ходимни катта ҳа-

ҳам, бурчни бажариш мажбурий эди. Масалан, пахта пунктида тарозибон бўлиб ишлаган фуқаро қўл остидаги барча ишчи-ходимлар билан жиноий жавобгарликка тортилган. Оддий кун кечирган одамлар айби нималигини ҳам билмайди. Умрини ҳалоллик билан ўтказган, содда кишиларни кўриб раҳмим келади. Назоратчи эса ҳар бир сўзимизни кузатиб, синчиклаб ёзиб ўтирибди.

Тергов жараёнида қўйилаётган айбловларни кўриб, асабларингизни жиловлан олмайсиз. Ўшанда тарозибон ҳамма порани ўзим олганман, пахта сотганман, лекин ходимларимни тинч қўйинглар, деб бақариб-чақиргани бир умрга



■ Бухарская область

ПРИМИРИТЬ СУПРУГОВ УДАЛОСЬ

Чтобы «развеяться» от каждодневных семейных неурядиц, Абдибек (имя изменено) из Куёвхужи вдоволь «отдохнул» вместе с друзьями. Вернувшись домой, выместил остаток скверного настроения на жене. Карима, еле мирившаяся с рукоприкладством мужа, на следующий день забрала двоих детей и ушла к родителям...



Справка: старший инспектор по вопросам женщин ОПП СОБ Пешкунского РОВД майор Дилдора Остонова в 2015 году с отличием окончила Академию МВД Республики Узбекистан. Службу начала в должности старшего инспектора группы по профилактике правонарушений среди несовершеннолетних и молодежи ОВД Пешкунского района. Ее показательная служба вскоре была замечена руководством. Спустя год ее перевели в отдел профилактики правонарушений УВД Бухарской области. Благодаря настойчивости она быстро освоилась на новом месте. С 2019 года Дилдора Остонова служит на нынешней должности.

Специалисты районного хокимията и активисты махалли провели беседы с семьей, стоящей на грани развода. Абдибек был не прочь помириться, но Карима не верила в восстановление отношений. По-человечески ее понять можно: постоянные разногласия со свекром и свекровью, ссоры с мужем, пересуды соседей сделали ее нервной и вспыльчивой. Искренний и профессиональный диалог психолога с женщиной, дельные советы умудренных житейским опытом людей способствовали восстановлению взаимоотношений в семье. Ныне чета вернулась к нормальной жизни.

Как утверждают специалисты, первые несколько лет супружеской жизни – период притирки характеров, время испытаний на прочность брачных уз. Появление детей почти

всегда сплывает родителей. Но случаются и исключения.

К примеру, Н. Г. и Д. Н. из махалли Валфажир не были молодоженами, растили троих детей. В один из дней махаллинский сход граждан получил тревожную весть: что-то неладное творится в этой семье. Изучение возникшей ситуации показало, что Д. Н. регулярно притеснял супругу под разными предлогами, что отрицательно сказывалось на воспитании детей. В результате вместе с ними она перебралась к родителям. Вскоре муж, уставший от одинокой жизни и раскаявшись, твердо пообещал исправиться и заявил, что хочет сохранить семью...

– К сожалению, в каждой семье могут возникнуть разногласия, обиды. Если дело дошло до вмешательства наших сотрудников, значит семья, скорее всего, на пороге разрушения.

Нам необходимо не только помирить супругов, но и вернуть их после ссоры к нормальным межличностным отношениям. Это не всегда просто. Конфликт супругов, не окончившийся грамотным примирением, отдаляет их друг от друга, разводит по две стороны пропасти. В такие моменты прилагаем все усилия к возвращению в семью доверительных взаимоотношений, – делится майор Д. Остонова.

За три месяца текущего года проведены профилактическая работа и индивидуальные беседы с девушками, состоящими на учете органов внутренних дел и образовательного учреждения, 26 супругами, стоящими на пороге развода, и членами неблагополучных семей. Изучены и классифицированы имеющиеся проблемы, разработаны меры по их решению совместно с заинтересованными организациями.

★ Хранители здоровья



БЕСЦЕННОЕ КАЧЕСТВО

Медсестра кабинета физиотерапии и дневного стационара поликлиники Медотдела УВД Андижанской области Сабина Буранова со своими служебными обязанностями справляется на высокопрофессиональном уровне. Всех пациентов, а это в основном действующие сотрудники, ветераны органов внутренних дел и члены их семей, она встречает улыбкой и добрым словом.

лет трудится в поликлинике Медицинского отдела УВД.

У Сабины дружная семья. Вместе с супругом Руфатом они воспитывают сына Сарварбека, которому 13 лет, и 9-летнюю Зебинисо. Сын мечтает стать сотрудником органов внутренних дел, а дочь врачом. С. Буранова студентка-заочница факультета практической психологии кыргызско-узбекского университета. После окончания учебы планирует работать психологом.

Сабина всегда с благодарностью вспоминает свою наставницу старшую медсестру Матлубу Гуламовну Исомиддинову, которая многому ее научила. У нашей героини также есть ученицы, это медсестры Ойдиной Умарова и Махфуза Сотволдиева.

– Хочу выразить огромную благодарность медсестре кабинета физиотерапии и дневного стационара. Ее профессионализм и внимательность к пациентам заслуживают самых высоких

похвал. Она всегда приветлива, терпелива и готова помочь, создавая комфортную и доверительную атмосферу. Благодаря ее заботе и чуткости лечение проходит гораздо легче и приятнее. Огромное спасибо за вашу работу! – говорит председатель Совета ветеранов УВД Андижанской области подполковник в отставке Давронбек Юсупов.

Борис КЛЕЙМАН,
соб. корр.

Андижанская область.

– Это мгновенно снимает у них напряжение, укрепляет веру в скорейшее выздоровление, – говорит С. Буранова. – Добрые слова становятся лекарством от грусти, оберегом от негативных эмоций.

Сабина после окончания Андижанского государственного медицинского колледжа работала медсестрой-стажером в реанимационном отделении клиники Андижанского государственного медицинского института. Вот уже 11



UCHINCHI SEKTOR

INSON QADRI HAR NEDAN ULUG'

Uzun tumani Surxondaryo viloyatining janubiy hududlaridan bo'lib, Tojikiston bilan chegaradosh. Tuman uchinchi sektoridagi 18 ta mahalla fuqarolar yig'inida 49020 nafar aholi istiqomat qiladi. Sektor aholisining bandligini to'liq ta'minlash choralari ko'rilmoqda. Hududda tomorqadan oqilona foydalanib, yaxshigina daromad oladiganlar ko'pchilikni tashkil etadi. Anchagina kishi banklarning qo'llab-quvvatlashi tufayli tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmoqda.

Sektor hududida joriy yilning o'tgan davri ichida o'tkazilgan sayyor qabullarda bildirilgan 68 ta murojaatning 56 tasi qanoatlantirildi, 6 tasi yuzasidan huquqiy tushuntirishlar berilib, 6 tasi bo'yicha mutasaddi idoralar

mashtirildi. 500 metr ichimlik suvi tarmog'i tortildi.

«Yashil makon» umum-milliy loyihasi doirasida 2400 tup manzarali va mevali daraxt ko'chatlari o'tqazildi. «Tashabbusli byudjet» loyihasi bo'yicha 3 km ichki



tomonidan o'rganish ishlari olib borilyapti.

«Obod mahalla», «Obod ko'cha», «Obod xonadon» mezonlari asosida yaqinda tumandagi «Madaniy turmush» MFYda ommaviy hashar o'tkazildi. Hashar chog'ida mahallaning ta'mirlab 4,5 km yo'lga shag'al yotqizildi. Bundan tashqari, 20 ta simyog'och ustun temirbeton ustunlarga al-

yo'llar asfalt qilindi. Homyalar ko'magida 2 ta ko'prik qurilib, foydalanishga topshirildi. Hududdagi maktablardan biri to'liq obodonlashtirildi. Ikkita artezian quduq qazilib, 80 ta xonadon toza ichimlik suvi bilan ta'minlandi. Bu kabi raqamlarni keltirishda yana uzoq davom etish mumkin.

Aniq misollarga o'tadigan bo'lsak, yaqinda «Nuraf-



shon» MFYda yashovchi Manzura Tursoatovanning nogiron farzandi Husan Tursunovga saxovatpesha fermerlar ko'magida 5 million so'm moddiy yordam puli berildi. Shuningdek, «Fayzobod» mahallasida yashovchi nogironligi bo'lgan Zaxiriddin Abd-xoliqovga nogironlik aravachasi sovg'a qilindi.

Bir so'z bilan aytganda, sektor hududida aholining muammolarni o'z vaqtida aniqlab, hal qilish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad xalqni rozi qilish, inson qadri har nedan ulug' ekanligini amalda namoyon etish.

Abu KENJAYEV,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.



FARZAND «SHAXSIY MULK» EMAS

Kelajagimiz poydevori bo'lgan bolalarni komil inson qilib voyaga yetkazish nafaqat ota-onalar, balki butun jamiyatning burchidir. Bola huquqlarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, bugungi kunda uning to'laqonli qonunchilik asoslari yaratilgan, deyishimiz mumkin. Xo'sh, bu boradagi sa'y-harakatlarga mas'ul bo'lgan Bolalar ombudsmani o'z vakolatlari doirasida qanday ishlarni amalga oshirmoqda? Bu haqda Oliy Majlisning Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani) Surayyo Rahmonovaga yuzlandik.

– Sizningcha, hozirgi kunda respublikamizda bolalarga zo'rvonlik ko'payayotganining sababi nimada?

– Bolalarga nisbatan zo'rvonlik faqatgina O'zbekiston uchun emas, balki global miqyosdagi muammodir. Xalqaro bolalar tashkiloti (YUNISEF) ma'lumotlariga ko'ra, 2–4 yoshdagi bolalarning deyarli to'rtidan uch qismi (taxminan 300 million bola) muntazam ravishda ota-onalar va boshqalar tomonidan jismoniy yoki ruhiy zo'rvonlikka uchraydi. Eng achinarlisi, jahonda har 7 daqiqada 1 nafar o'spirin zo'rvonlik oqibatida hayotdan ko'z yumyapti. Shuning uchun ham bu masala BMTning kun tartibida jahondagi ta'lim ahvoli muammosidan keyin ko'riladigan markaziy masala hisoblanadi.

Bugungi kunda zo'rvonlik holatlari aks etgan videotasvirlar va xabarlar ijtimoiy tarmoqlarda tez tarqalayotgani respublikada zo'rvonlik holatlari oshib ketyapti, degan tasavurni keltirib chiqarmoqda. Zo'rvonlik holatlariga befarq bo'lmagan insonlar soni ortib borayotganligi albatta quvonarli. Bu jamiyatimizda bolalarga nisbatan tafakkur o'zgarayotganligidan dalolat.

Aytish kerakki, bolaga nisbatan zo'rvonlikning har qanday ko'rinishi yo'l qo'yib bo'lmaydigan holat, unga mutlaqo murosasiz bo'lishimiz zarur.



Zo'rvonlik jismoniy, jinsiy, ruhiy bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, hozirda zo'rvonlikning boshqa – g'amxo'rlik ko'rsatmaslik, ekspluatatsiya, bulling kabi turlari ham qonunan e'tirof etilmoqda.

Bolani urish tarbiya usuli emas. Bunday yondashuvdan chekinish zarur. Ota-onalar tomonidan farzandlariga nisbatan hech bir holatda zo'rvonlik qilinishi yoki biror harakati uchun urish, kaltaklash ko'rinishidagi jismoniy jazo qo'llashi mumkin emas. Bolaning hayoti, sog'lig'i hamda sha'ni va qadr-qimmatini qonun bilan himoyalangan.

Zo'rvonlikni tashqarida, begonalardan emas, balki eng yaqinlaridan – unga mehr-muhabbat ko'rsatishi kerak bo'lgan insonlardan ko'rayotgan bolajonning ko'nglida nima kechayotganini bir tasavvur qilib ko'ring! Bunday bolaning dunyosi ostin-ustun bo'ladi, hayotga, ertangi kunga, insonlarga ishonchi so'nadi.

Farzand – ota-onaning «shaxsiy mulki» degan fikr bilan yashashni bas qilish kerak. Ota-onalar bolaga egalik qiladigan emas, unga g'amxo'rlik va mehr ko'rsatishi, uning jismonan, ruhan va aqlan kamol topishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish majburiyati yuklangan insonlardir.

Davlat bolalarga hech kim, hatto ularning yaqinlari ham zarar yetkazishiga yo'l qo'ymaydi. Xususan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi hamda Jinoyat kodekslarining tegishli moddalarida bunday qilmishi uchun qat'iy choralar belgilangan.

– Agar bolaga zo'rvonlik qilinayotganini bilsak, kimga murojaat qilishimiz kerak? Xususan, Bolalar ombudsmaniga murojaat qilish tartiblari qanday?

– Agar bolaga nisbatan zo'rvonlik sodir etilayotgan bo'lsa, birinchi navbatda, «102» ga qo'ng'iroq qilib, hududiy IIBga xabar berilishi lozim.

Agar huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'z vaqtida vazifasini bajarmasa, Bolalar ombudsmaniga murojaat qilish kerak.

Bola huquqlari bo'yicha vakil O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining, O'zbekiston Respublikasi hududida turgan chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning, yuridik shaxslarning bola huquqlarini buzayotgan tashkilotlarning yoki mansabdor shaxslarning harakatlari yoki harakatsizligi ustidan bergan shikoyatlarini ko'rib chiqadi hamda o'z tekshiruvini o'tkazish huquqiga ega.

Bolalarning o'zi huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi masalalarida shikoyat berishi mumkin. Vakil bolalarning shikoyatlarini ko'rib chiqishi shart, ularning shikoyatini ko'rib chiqmasdan qoldirishga yo'l qo'yilmaydi. U bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzilganligi to'g'risida axborot mavjud bo'lganda yoxud himoyaning huquqiy vositalaridan mustaqil ravishda foydalanishga layoqatsiz shaxslarni himoya qilish uchun o'z tashabbusi bilan faktlar tekshiruvini o'tkazishga haqlidir.

– Beg'ubor bolalik onlarining asosiy qismi ta'lim muassasalarida o'tadi. Biroq bugun bu maskanlar ham xavfsiz emas, nazarimizda.

– Haqiqatan ham, turli ta'lim muassasalarida tarbiyachi, o'qituvchilar tomonidan voyaga yetmaganlarga nisbatan o'tkazilayotgan tazyiq holatlari ko'p uchramoqda. Bu haqda jamoatchilik ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan turli materiallar, videolar orqali ham xabar topmoqda. Jumladan, Bolalar ombudsmani kotibiyatiga bu borada bevosita ota-onalar, bolaning yaqin qarindoshlari yoki bolalarning o'zlaridan ham ko'plab murojaatlar kelib tushmoqda. Bolalar ombudsmani so'rovi asosida mutasaddi tashkilotlar bun-

day vaziyatlarni o'rganib, aksariyat hollarda, holat o'z tasdig'ini topmoqda. Qonun doirasida ta'lim muassasasi xodimiga nisbatan tegishli choralar qo'llanilmoqda. Hech bir holat e'tibordan chetda yoki javobsiz qolmayapti.

Albatta, vaziyatga har tomonlama yondashish muhim. Bolalar tomonidan ham o'qituvchilarga nisbatan hurmatsizlik ko'rsatish, quloq solmaslik, ko'rsatmaga amal qilmaslik hollari kuzatiladi. Lekin nima bo'lganda ham, bola qanday xulqda bo'lishidan qat'i nazar, unga nisbatan g'ayriinsoniy, noqonuniy chora ko'rilishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bu kabi harakatlarga yo'l qo'yganlar, ayniqsa, bolaning ta'lim va tarbiyasi uchun mas'ul bo'lgan shaxslar qat'iy ravishda qonun doirasida javobgarlikka tortilishi shart.

– Bolalar ombudsmaniga qaysi masalalarda murojaatlar kelib tushmoqda?

– Bolalar ombudsmaniga har kuni turli xil murojaatlar kelib tushadi. Murojaatlar nafaqat ota-ona, bolaning yaqin qarindoshlaridan, balki voyaga yetmaganlarning o'zlaridan ham kelib tushmoqda. Xususan, aksariyat hollarda, voyaga yetmagan qizlar oilaviy zo'rvonlik qurboni, ota-ona yoki umuman uchinchi shaxslar tomonidan erda turmush qurishga majburlarnayotganliklari, voyaga yetmagan o'g'il bolalar esa ularga maktablarda boshqa sinf o'quvchilari tomonidan tazyiq (bulling) o'tkazib kelinayotganligi yuzasidan murojaat qilishmoqda.

Masalan, 2024-yilning birinchi choragida Bolalar ombudsmani kotibiyatiga jami 262 ta murojaat kelib tushgan. Murojaatlarning har birini atroflicha o'rganib, mutasaddi idoralarga manzilli chora ko'rish bo'yicha so'rovlar yuboramiz va holat o'z yechimini topmaguncha nazoratimizni davom ettiramiz. Murojaatlar ijobiy hal etilganidan so'ng yoki jarayon qaysi bosqichda ekanligi borasida ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarimizda e'lon qilib bormoqdamiz.

Shu bilan birga, hozirda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda har bir ta'lim muassasasida murojaatlar qutisini tashkil qilishni rejalashtiryapmiz. Bu orqali bolalar omma oldida ayta olmaydigan muammolariga oid xabarlarini qutilarda qoldirishadi, biz, mutasaddilar esa ularni o'rganib chora ko'ramiz.

Bolalar ombudsmanining davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligi bolaning shaxsiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy huquqlari ta'minlanishiga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, Bolalar ombudsmani farzandlarimiz manfaatlariga e'tiborsiz bo'lmagan jamiyatimizning har bir faol a'zosi bilan hamkorlikka va muloqotga ochiqdir.

**O'z muxbirimiz
Madina QAHHOROVA
suhbatlashdi.**

Sud statistikasiga ko'ra, 2023-yil davomida O'zbekistonda 297 nafar voyaga yetmagan zo'rvonlik qurboniga aylangan. Shundan 198 nafariga jismoniy, 99 nafariga nisbatan jinsiy zo'rvonlik sodir etilgan. Taqqoslash uchun – 2022-yilda 327 nafar bola zo'rvonlik qurboni bo'lib, ulardan 225 nafari jismoniy, 102 nafari jinsiy zo'rvonlikdan aziyat chekkan.

– Qanday holatlarda katta yoshdagilar bolaga zo'rvonlik qilgan hisoblanadi?

– Zo'rvonlik – bolaning asosiy ehtiyojlari va eng ustun manfaatlariga zid bo'lgan, uning hayoti, sog'lig'i, jinsiy daxlsizligi, sha'ni, qadr-qimmatini va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan, shu jumladan, jismoniy yoki ruhiy azob yetkazayotgan yoxud yetkazishi mumkin bo'lgan qasddan sodir etilgan har qanday harakat (harakatsizlik)dir.



■ **Навоийская область****ДОСТУП К ИТ-ТЕХНОЛОГИЯМ**

Процессы цифровизации коснулись и службы кинологии. Специалисты по подготовке и использованию служебных собак получили возможность сбора, передачи и хранения необходимой информации в электронном виде.


Сотрудникам отделения кинологии УООП СОБ Навоийского УВД выданы планшеты, позволяющие передавать ежедневную информацию в электронную базу данных «E-kinolog» непосредственно с мест.

В ходе занятий, которые были предварительно органи-

зованы, IT-специалисты ответили на вопросы, интересующие кинологов.

Новшество существенно повысит эффективность их работы, ускорит обмен информацией, сэкономит время.

Соб. корр.

■ **Кашкадарьинская область****ДУХОВНОСТЬ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ**

В Кашкадарьинском академическом лицее МВД состоялась республиканская научно-практическая конференция на тему «Духовно-просветительское и нравственное воспитание молодежи в эпоху глобализации, формирование у молодых людей чувства патриотизма: теория и практика».



В ней приняли участие представители Ташкентского филиала Российского экономического университета имени Плеханова, Каршинского государственного университета, председатель Кашкадарьинского областного

правления международного благотворительного фонда «Олтин мерос» писательница Шарофат Ашурова, директор академического лицея Нуристан Акмалжон Кудратов, руководитель Кашкадарьинского областного отдела



центра духовности и просветительства Комила Карамова. Также в числе участников мероприятия были ответственные сотрудники органов местного управления, правоохранительных органов, заместители директоров академических лицеев по духовно-просветительской работе, творческая интеллигенция, учащиеся данного лицея и их наставники.

В ходе конференции были затронуты актуальные вопросы, касающиеся преобразований в духовной сфере, осуществляемых в последние годы в республике, сформулированы выводы относительно укрепления нравственного иммунитета в условиях глобализации.

Икром ФАРМОНОВ,
подполковник.



PROBATSIYA XIZMATI

JAMIYATGA MOSLASHISH

KO'MAK VA QO'LLAB-QUVVATLASHNI TALAB QILADI

Ayni paytda Kattaqo'rg'on tumanida 449 nafar fuqaro probatsiya hisobiga olingan. Ulardan 73 nafari muayyan huquqdan mahrum etilgan. 108 nafariga axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlangan. Sinov jazosiga hukm qilinganlar 6 nafar, ozodlikni cheklash jazosiga hukm qilinganlar 93 nafar, jazodan muddatidan ilgari shartli ozod etilganlar esa 169 nafarni tashkil etadi. Probatsiya hisobidagilarning har biri bilan yakka tartibda suhbat o'tkazilib, muammolari o'rganilmoqda.

Aksariyat masalalar joyida hal etilyapti. Jumladan, ID karta rasmiylashtirish, tibbiy ko'rikdan o'tkazish, bir martalik moddiy yordam ko'rsatish, doimiy ish joyiga ega bo'lmaganlarning bandligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

– Probatsiya xizmati hisobida turganlar orasida jazodan qochib yurganlar ham bor, – deydi tuman IIB JXX probatsiya guruhi katta inspektori, kapitan Jalolidin Norov. – Lekin tuzalish yo'lini tanlaganlar ham oz emas. 53 nafar mahkum jazoni o'tashdan muddatidan

ilgari ozod qilindi. Xodimlarimiz probatsiya hisobida turganlarga jamiyat hayotiga ijtimoiy moslashuvda, ishga joylashish va ta'lim olishida ko'maklashishmoqda. Ularga yashash joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazish uchun zarur hujjatlarni rasmiylashtirishda yordam berishyapti.

Nazorat ostidagi shaxslar tomonidan takroran jinoyat sodir etilishining oldini olish maqsadida joriy yilning o'tgan davrida besh marta sayyor sud tashkil etildi. Yakka tartibda profilaktik suhbatlar o'tkazilib, ularning



oilaviy sharoiti o'rganilib, aniqlangan muammolar joyida hal etildi. Hisobda turgan yoshlarni, ayniqsa, o'smirlar ixtisoslashtirilgan

maktablarda kasb-hunarga o'rgatildi. Xususan, yil boshidan buyon 11 nafar yoshlar «Jasorat» maxsus maktabida tahsil oldi va

o'qish yakunida bitiruvchilarga sertifikatlar topshirildi.

Zamira BOLTAYEVA,
o'z muxbirimiz.
Samarqand viloyati.

O'QUV MASHG'ULOTI

KURSANTLAR AMALIYOTDA

IIV huzuridagi JIED Birinchi min-taqaviy hududi 13-son JIEKda vazirlik Akademiyasining kunduzgi ta'lim yo'nalishida «Jazoni ijro etish faoliyati» ixtisosligi bo'yicha ta'lim olayotgan bitiruvchilar uchun «Final – 2024» kompleks o'quv mashg'ulotlari o'tkazilmoqda.

Mashg'ulotlarda berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida va sifatli bajarishda kursantlarga muassasaning sohaviy xizmatlari xodimlari yaqindan amaliy ko'mak ko'rsatishmoqda.

O'tkazilayotgan mazkur o'quv mashg'ulotlari kursantlarga kelgusida yosh ofitser sifatida o'z faoliyatlarini amalga oshirishida katta yordam beradi.



MA'NAVIYAT MARSHRUTI

QUTLOV

HAZRATI
LANGAR

Uzoq yillik tarixga ega osori atiqalarimiz, ziyoratgohlarimiz xalqimizning bebaho merosidir. Ajdodlarimizdan qolgan bu merosni avaylab-asrashimiz, kelgusi avlodlarga yetkazish esa insoniy burchimiz. Namangan shahridagi «Hazrati Langar» jome masjidi haqida ham ana shu fikrlarni aytish mumkin.

Rivoyatlarga ko'ra, XIV asr boshlarida Namangan aholisi zilzilalar, suv toshqinlari kabi og'ir tabiiy ofatlarga duchor bo'lib, odamlar boshqa joylarga ko'chib ketishni boshlagan. Yurtning ko'zga ko'ringan ulamolari o'zaro maslahatlashib, Shosh muzofotidagi ilohiyot va tasavvuf ilmining yirik namoyandasi, yetuk mutasavvif Shayx Xovandi Tohur hazratlarining huzuriga borib, bo'lib o'tgan voqealardan so'zlab berishadi. Shundan so'ng hazrat o'zining yetuk shogirdi va jiyani Sayyid Mahmudni Namanganga yuboradi. U kishi Namangan shahrining hozirgi «Haqiqat» mahallasi hududida joylashgan ko'lining janubiga langar tashlaydi. Ushbu voqeadan so'ng xalq u zotni hurmatlab, «Langar bobo» deb atay boshlaydi.

Tarixiy manbalarda «Hazrati Langar» masjidi Sayyid Mahmud sharafiga atab qurilgan, degan ma'lumotlar bor. Masjidning avvalgi o'zni mazkur ko'lining shimoli-sharqiy qismida bo'lib, XVIII asr o'rtalariga kelib, ko'lining janubiy qismidagi kenglikka ko'chirishga qaror qilinadi. Masjid 1746–1751-yillar mobaynida Mulla Badal ismli kishi taklifiga binoan, Mavlono Rajab Xo'jandiy (Ko'hiy) va Xo'ja Amin II Parranda maqbaralaridan 15–20 metr chamasi yon tomonga ko'chirilib, hashar yo'li bilan masjid xonaqosi, keyinchalik ayvoni qurib bitkaziladi. Uning qurilishida

usta Rahim bosh me'morlik qiladi. Oradan bir necha yil o'tgach, hovlisiga pishiqlik g'ishtdan qo'shimcha xonalar (darsxonalar) va minora bilan darvozaxona quriladi. Qurilish

Mulla Otaxon domla (Avliyo domla), Sobitxon to'ra (Abul Ma'oni), Nuriddinxo'ja Eshon va Tojixon Maxdumdek ulug' zotlarning shu dargohdan yetishib chiqqani fikrimiz dalilidir. Shunga ko'ra, bu masjid 1930-yilga qadar Namangandagi bosh jome masjid sifatida e'tirof etilgan.

Mustabid tuzum davrida boshqa obidalar qatori maqbara va Langar buva qadamjolari hamda uning atrofidagi 5–6 gektarli qabriston buzilib, suv bostirib ekinzorga aylantirilgan. 1918–1930-yillarda masjid hududidagi madrasa va boshqa binolar buzilib, g'ishtlari tashib ketilgan. Faqatgina xonaqo, ayvon va ikkita qo'shimcha xonasi saqlanib, ular ham omborxonaga aylantirilgan. 1943-yili O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy idorasi tashkil etilganda Namanganda faqat shu masjid faoliyat ko'rsatishiga ruxsat etilgan. Biroz muddat o'tgach, masjid faoliyati to'xtatilib, o'rniga «Shayx Eshon» masjidi faoliyat ko'rsata boshlagan.

Istiqlol arafasida, 1989-yili masjid o'z faoliyatini qaytadan boshladi. Shu yili hashari yo'li bilan olti oy davomida masjidning yangi binosi qad rostladi. 1992-yildan boshlab masjid rasmiy yuridik maqomga ega bo'lib, o'z faoliyatini davom ettira boshladi. Hozirda masjidda namozxonlar uchun barcha qulay sharoitlar yaratilgan. Jumladan, ikkita katta xonaqoh ayvoni bilan, tahoratxona hamda kattagina kutubxona namozxon va ziyoratchilarga xizmat ko'rsatmoqda.

**Gulchehra
BUVAMIRZAYEVA
tayyorladi.**



Salkam bir asrdan buyon o'quvchilarning eng sevimli gazetasi bo'lib kelayotgan «Tong yulduzi»da taniqli yozuvchi va shoirlarning qaldirg'och ijod namunalari chop etilgan. Tan olish kerakki, ushbu gazeta yuzlab ijodkorlarga ilk minbar bergan, ular uchun mahorat maktabi vazifasini o'tagan.

Bolalar va o'smirlarning davlat nashri sifatida butun respublika bo'yicha yetakchi o'rinda bo'lgan otaxon gazeta bu yil 95 yoshini nishonlamoqda.

Shu munosabat bilan mamlakatimizdagi bolajonlarning eng sevimli nashrlaridan biri bo'lgan gazeta ijodiy jamoasi va o'quvchilarini samimiy qutlab, yutuq va muvaffaqiyatlar hamisha bardavom bo'lishini tilab qolamiz.

IIV Birlashgan tahririyati.

MA'RIFATGA DA'VAT

«Tong yulduz»in o'qimaskan toki bolalar,
Ko'ngillarini tong yulduzi charaqlab kulmas.
To «G'uncha»ni bilmas ekan gul-u lolalar,
Dilda orzu g'unchalari guldek ochilmas.

To «Gulxan»dan nur olmaskan ul qora ko'zlar,
Ma'rifatning o'chog'idan zarra cho'g' olmas.
Yuragida Vatan sehri, elu yurt mehri –
Ma'nayiyat mayog'idek lovullab yonmas.

Ey otalar, onajonlar, farzandingizga –
Ajdodlarning shonidayin bir shan' beringiz.
Uning jajji qo'lchasiga kitobga qo'shib,
«Tong yulduzi», «G'uncha» ila «Gulxan» beringiz!

**Zikrilla NE'MAT,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi,
iste'fodagi polkovnik.**



«Maktablarning dars tugashi bilan yopilishi – bu mutlaqo noto'g'ri. Kutubxona, sport zal, kompyuter xonalari, tadbirlar zali doimiy ishlashi, ularda har kuni musobaqa, konsert, kitobxonlik, mushoira, «Zakat» va boshqa intellektual o'yinlar o'tkazilishi kerak», – dedi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev maktab ta'limini rivojlantirish masalalari yuzasidan joriy yil 28-yanvarda bo'lib o'tgan videosektor yig'ilishida.



Suratda: Navoiy shahridagi 8-IATCHO'IT maktabining geografiya fani o'qituvchisi Ozoda Meliyeva shogirdi 7-«B» sinf o'quvchisi Aziza Husanova bilan mutolaa xususida suhbatlashishmoqda.



KIBERJINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHAMIZ

«SIZ AKSIYA G'OLIBI BO'LDINGIZ!»

yoxud firibgarlarning «o'lja»siga aylanayotgan fuqarolar

Bugungi kunda internetdan foydalanish jarayonida o'ziga xos imkoniyatlar bilan birga xavf-xatarga ham ega, ya'ni kiberjinoyatlar yuzaga kelmoqda. Aksar holatlarda kiberfiribgarning «qopqon»iga sodda, ishonuvchan, qiziqqon, kiberjinoyat haqida bilim va ko'nikmaga ega bo'lmagan fuqarolarimiz tushmoqda.

Kiberjinoyat qurbonlarining yana bir turi borki, ular ishlamasdan turib oson boylik orttirish, tez boyib ketish uchun hamma ishga tayyor bo'ladilar. Bunday shaxslar yaqinlarining ogohlantirishlariga ham quloq tutmay, bor mol-mulkinini kiberfiribgarlar qo'liga berib qo'ygan holatlar ham uchrab turibdi. Tekin boylik, pulga ega bo'lish vasvasasi bunga zamin yaratyapti. Axir, o'ylab ko'ring, qanday qilib aksiyada ishtirok etmasdan turib aksiya g'olibi bo'lish mumkin? Yoki bo'lmasa, biror marta bo'lsa ham davlat tomonidan fuqarolarga moddiy yordam puli ijtimoiy tarmoqlardagi havola, exe fayl yoki apk ilova orqali tarqatilganmi? Bank xodimi mijozlariga aloqaga chiqib, ularga tegishli plastik karta ma'lumotlarini, plastik kartani boshqarish huquqini beruvchi kodni yana qaytadan so'rashi mumkinmi?..

Yaqinda «Telegram» messenjeri va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda Qarshi shahrida yashovchi «Ali-

jon tredyer», «Treding uz» hamda boshqa shu kabi profil va kanallar adminlari fuqarolarga pullarini ko'paytirib berayotgani haqidagi shov-shuv tarqaldi.

Viloyat IIB TQX Kiberxavfsizlik bo'limi xodimlari tomonidan olib borilgan tezkor-qidiruv va texnik tadbirlar natijasida yuqoridagi profil va kanallar adminlari fuqarolarning bank plastik kartalaridagi pul mablag'larini aldov yo'li bilan, ko'paytirib berish bahonasida qo'lga kiritib, o'zlashtirish bilan shug'ullanib kelgani aniqlandi.

Surishtiruvlar davomida ushbu shaxslar Koson tumani «Darcha» mahallasida yashovchi X.B., H.B. va A.H. ekani ma'lum bo'ldi. Qarshi shahridagi «Navo» mahallasidagi ko'p qavatli uyda ijarada yashagan bu «showvozlardan» jinoyat sodir etishda foydalanilgan 1 ta noutbuk, 6 ta telefon apparati, 4 ta bank plastik kartasi, 8 ta sim kartasi, 9 ta sim karta muqovasi, 18 mln 300 ming so'm miqdoridagi pul



mablag'i va bankomat cheki belgilangan tartibda rasmiylashtirib olindi.

Jinoiy guruh a'zolaridan Qashqadaryo viloyati va respublikamizning boshqa hududlaridan 3 ming 811 nafar akkaunt egalari jabrlangan. Ular ijtimoiy tarmoqlardagi profil, guruh va kanallarda fuqarolar bilan yozishmalar olib borib, pullarni qo'lga kiritganidan so'ng fuqarolarning akkauntlarini bloklab qo'yishgan. Misol uchun,

Yakkabog' tumanida yashovchi R.Sh. ana shunday aldovga uchib, 9 million so'm pulidan ayrilgan. Jinoiy guruh fuqarolarga yetkazgan umumiy zarar miqdori 1 milliard so'mdan ko'proqni tashkil etgan.

Hozirda holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atilib, tergov harakatlari olib borilyapti.

Suhrob MUHAMMADIYEV,
kapitan.

Qashqadaryo viloyati.

QORADORI – 2024

**KIYIMGA
O'RALGAN OG'U**

Jizzax shahrining «Sayiljoy» mahallasida yashovchi B.N. 2 gramm gashishni 300 ming so'mga sotayotgan vaqti ichki ishlar organlari jinoyat qidiruv xizmati xodimlari tomonidan qo'lga olindi. Unga tegishli «Nexia-3» rusumli avtoulov ko'zdan kechirilganida, ichidagi kuldondan 1 gramm gashish, yukxonadan metallardan yasalgan bita topildi.

Holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atilib, olib borilgan tergovga qadar tekshiruv jarayonida B.N. giyohvandlik moddasini Sharof Rashidov tumanining «Sharilloq» mahallasida istiqomat qiluvchi E.H.dan sotib olganini ma'lum qildi. Mazkur shaxs nazorat ostiga olinib, 2 gramm gashishni 600 ming so'mga sotayotganda ushlandi. E.H.ning uyini tintuv qilish chog'ida esa ayollar kiyimiga o'rab qo'yilgan 200 gramm gashish topildi.

Xuddi shunday, Sharof Rashidov tumanining «Toqchilik» mahallasida yashovchi X.A. boshqaruvdagi «Jentra» Jizzax shahri hududida to'xtatib

tekshirilganida, avtoulov yukxonasida 20 ming dona kuchli ta'sir qiluvchi psixotrop vosita borligi ayon bo'ldi. Gumon qilinuvchi bilan muloqot chog'ida u bu dorilarni Toshkent shahri Olmazor tumani «Guruchariq» mahallasida yashovchi Sh.B.dan 4300 AQSH dollariga olganini bildirgan.

Tabiiyki, tezkor tadbir davom ettirildi va Sh.B. ushlandi. Ko'p o'tmay u psixotrop vositalarni Toshkent shahrida yashovchi A.X.dan olganini tan oldi. Ushbu shaxsga tegishli «Treker» avtomashinasi poytaxtda to'xtatilib, ko'zdan kechirildi. Avtoulov yukxonasidan 13 xil turdagi 48094 dona



kuchli ta'sir qiluvchi vosita topildi. Mazkur jinoyat ishi doirasida 3 nafar gumon qilinuvchidan qiymati 15209 AQSH dollarlik psixotrop vositalar olindi.

Umuman olganda, joriy yil boshidan buyon jizzax-

lik ichki ishlar organlari xodimlari yuqorida tafsilotlari bayon etilgani singari 98 ta jinoyatni fosh qilgan. Tezkor tadbirlar davomida 6 kilogramm 527 gramm opiy, gashish, mariyuana, ko'knori kabi giyohvandlik

hamda psixotrop moddalar olingan.

«Qoradori – 2024» tadbirlari davom ettirilmogda.

Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.
Jizzax viloyati.

ИИБ Фахрийлар кенгаши ички ишлар органлари фахрийси, истеъфодаги подполковник

Баҳодир ЭГАМБЕРДИЕВнинг вафот этганлиги муносабати билан марҳумнинг оила аъзолари ва яқинларига ҳамдардлик билдиради.

ИИБ Бирлашган таҳририяти жамоаси хўжалик ишлари бўлими мудирини, истеъфодаги капитан Акромжон Эсоновга укаси **АСРОРИДДИН**нинг вафот этганлиги муносабати билан чуқур таъзия изҳор этади.



DIAREYA: BELGILARI, PROFILAKTIKASI VA UNGA QARSHI CHORALAR

Diareya o'tkir yuqumli ichak kasalligi bo'lib, issiq kunlarda tez tarqaladi, iqlim sharoiti issiq va quruq, toza ichimlik suvi muammo bo'lgan hududlarda ko'proq uchraydi. Kasallik belgilari dizenteriya, oshqozon-ichak faoliyatining buzilishi, o'tkir enterokolit kabi kasalliklarga o'xshab ketadi.

Kasallikni tashqi muhitga ancha chidamli bo'lgan bakteriya va viruslar qo'zg'atadi. Ular odam organizmiga yuvilmagan meva, sabzavotlar va ifloslangan qo'llar orqali tushadi. Ba'zi bakteriyalar o'zidan zahar ajratish xususiyatiga ega. U qonga so'rib, butun tanani zaharlaydi.

Bakteriya va viruslar odam organizmiga tushishi bilan noq kasallikni qo'zg'atmaydi. Ular dastlab, ma'lum muddat davomida ichaklarda ko'paya boshlaydi. Bu vaqtda kasallikning belgilari yuzaga chiqmaydi. Shu bois bu muddat «kasallikning yashirin davri» deyiladi. Mazkur davr o'rtacha bir necha soatdan 7–10 kungacha davom etishi mumkin. Ko'p hollarda uning davomiyligi ichakka tushgan mikroblarning miqdoriga, odam immunitetiga bog'liq. Odam organizmi kurashuvchan bo'lsa, kasallik yengil o'tadi.

Quyidagi hollarda diareya bilan kasallanish xavfi yuqori bo'ladi:

- yaxshi saqlanmagan va uzoq muddat turib qolgan ovqatlarni iste'mol qilganda;
- ho'l meva va sabzavotlarni yaxshi yuvmasdan

hamda ushbu mahsulotlardan tayyorlangan qo'lbola sharbatlar, kompotlarni iste'mol qilganda;

– kasallik bilan og'rikan bemor bilan muloqotda bo'lganda shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik natijasida;

– ochiq suv havzalari-da cho'milganda suv bilan mikroblar organizmga tushishi natijasida;

– oshxonalarda yoki uy sharoitida sanitariya me'yor va qoidalariga rioya qilinmagan holda tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilganda.

Diareya oshqozon-ichak tizimini zararlovchi infeksiyalar ta'sirida kelib chiqadigan tez-tez va suyuq ich ketishi (ba'zan qon aralash) bilan kuzatiladi. Qorinning dam bo'lishi, ko'ngil aynishi, ishtahaning pasayishi yoki yo'qolishi, holsizlik, haroratning ko'tarilishi, chanqash, lab va tilning qurishi, organizmning suvsizlanishi kabi bir qator klinik belgilar bilan namoyon bo'ladi. Buning natijasida bemor ko'p suyuqlik va organizm uchun zarur bo'lgan mikroelementlarni yo'qotadi, organizmda suvtuz balansini – modda almashi-

nuvi buziladi va bemor tanasining suvsizlanishiga olib keladi. Tana suvsizlanishi esa juda xavfli holat bo'lib, u o'z vaqtida, to'g'ri davolanmasa, kasallik og'ir asoratlarga olib keladi.

Ba'zi odamlarda kasallik belgilarisiz kechadi, lekin mikroblar ularning najasi, siydigi, so'lagi bilan tashqi muhitga chiqadi. Tibbiyotda bu holat «sog'lom bakteriya tashuvchilar» deb yuritiladi. Ba'zida esa kasallik alomatlari yengil namoyon bo'lib, bemorlar shifokorlarga murojaat qilmaydi va noto'g'ri davolanib, ular ham «bakteriya tashuvchi» sifatida atrofdagilarga xavf tug'dirishi mumkin.

Agarda, siz yuqoridagi kasallik belgilarini o'zingizda sezsangiz, darhol shifokorga murojaat qiling. Aks holda, noto'g'ri muolaja qilish, antibiotiklarni noto'g'ri iste'mol qilish natijasida yoki o'z vaqtda davo choralarini ko'rilmaligi oqibatida og'ir asoratlarni kelib chiqishi mumkin.

Amal qilish lozim bo'lgan tavsiyalar:

- suvni qaynatilgan holda ichish;
- birinchi navbatda ozodalik va gigiyenaga rioya qilish,



ayniqsa, qo'llarni ovqatdan oldin, hojatdan keyin sovunlab yuvish zarur. Umuman xizmatda, jamoat joylarida, uyda shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish;

– har narsani bilib-bilmay og'izga solishdan saqlanish kerak. Ayniqsa, bozorda ho'l meva xarid qilinganida, albat, yuvib iste'mol qilish zarur;

– xizmat vaqtida, navbatchiliklarda, eng xatarlisi, uzoq muddatli xizmat safarlarida tayyorlanish va saqlanishi sanitariya talablariga javob bermaydigan va uzoq vaqt turib qolgan oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilmaslik kerak;

– ochiq suv havzalari-da cho'milganda suv yutmaslik lozim;

– oshxonalaridagi sovutkichlarni toza tutish, undagi

mahsulotlarni o'z vaqtida iste'mol qilish va tez-tez yangilab turish;

– oshxonalarida tayyorlangan ovqatlarni yetarli miqdorda tayyorlab, uzoq muddat saqlamaslik, tayyor pishgan ovqat mahsulotlarini 2–4 soatdan keyin iste'mol qilmaslik;

– oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilishda ularning yaroqlilik muddatiga e'tibor qaratish;

– atrof-muhit, yashash, xizmat xonalari, hudud va umumiy foydalanadigan joylarning, oshxona, bufetlar doimo ozoda bo'lishini ta'minlash.

Unutmang, sizning sog'lig'ingiz ko'p jihatdan avvalo o'zingizga bog'liq.

Botir FOZILOV,
podpolkovnik.



Как побороть вечерний аппетит?


1. Чайную ложку меда запить теплой водой.
2. Выпить стакан кефира. Он не только утоляет голод, но и в целом полезен для организма и не наносит вреда фигуре.
3. Выпить стакан молока. Можно пить как теплое, так и холодное.
4. Выпить чашку черного чая.
5. Зубная паста перебивает аппетит. Почистите зубы вечером, двойная польза.
6. Выпить два стакана чистой воды.

Если вы поперхнулись или подавились

В первую очередь постарайтесь успокоиться. Паника не даст вам сосредоточиться на самопомощи и только усугубит положение.

Попробуйте кашлять как можно интенсивнее: это основной защитный механизм, придуманный природой. Чтобы усилить кашель, можно согнуться. В этом случае помогут мышцы брюшного пресса.

Ни в коем случае не пытайтесь подавить кашель. Это только ухудшит ситуацию. Также можете резко поднять руки вверх. Если вы в общественном месте и вам неудобно поднять руки вверх, можете это сделать с согнутыми локтями.



СОН НА ЛЕВОМ БОКУ ПОЛЕЗЕН

Улучшенный лимфодренаж. Положение на левом боку улучшает циркуляцию лимфатической жидкости, способствуя выведению отходов и токсинов из организма.

Лучшее пищеварение. Гравитация облегчает перемещение пищи из желудка в тонкий кишечник с левой стороны, способствуя хорошему пищеварению и слаженной работе ЖКТ.

Улучшение кровообращения.

Сон на левом боку может улучшить кровообращение за счет снижения давления на жизненно важные органы, такие как сердце, почки и печень.

Уменьшает храп. Сон на левом боку может помочь облегчить проблемы с храпом во сне, сохраняя ваши дыхательные пути открытыми и снижая риск закупорки. В результате, храп появляется реже, а дыхание во сне улучшается.

Облегчение изжоги. Если после острой и обильной еды вас мучает изжога, это отличный способ облегчить ее проявление.



Полезно знать!

Интересна история происхождения названий мест. Некоторые топонимы означают совершенно другое, нежели кажется на первый взгляд. У нас в стране немало городов и кишлаков с подобными названиями.

Газалкент – город газелей?

«Кент» в древнем согдийском языке имел форму «канд», «кант» и означал стену, дом, жилище, курган, кишлак.



Встречается много географических объектов, в названии которых использовано слово «кент» или его разновидность: Ташкент, Самарканд, Паркент, Пскент.

А что же с Газалкентом? Как указано в специальной литературе по топонимике, название города происходит от названия хазарского племени. Хазаркент – кишлак хазаров. Впоследствии слово «хазар» трансформировалось в «газал». Город Гузар в Кашкадарье, кишлак Газира в Джамбайском районе также указывают на слово хазар.

Сариосиё и Осиё

Составные части слова Сариосиё как будто указывают на лексические едини-



цы «сари» (в сторону) и «Осиё» (Азия). На самом деле по-персидски «сар» – во главе, «осиё» – мельница. Значит Сариосиё – начало мельницы, кишлак, находящийся выше мельницы. Кроме района в Сурхандарьинской области, топонимов со словом «осиё» достаточно много: Га-лаосиё, Кушосиё, Тагиосиё.

Улугнор и большой гранат

Улугнор – район в Андижанской области. По форме образования слово состоит



из лексических единиц «улуг» и «нор». Это наводит на мысль, что название географического объекта указывает на наличие здесь большого (великого) граната. Но это неверное предположение.

В Андижане протекает канал Улугнор, по которому и назван район. Канал был построен в 1868–1871 годах по приказу правителя Коканда. Лексическая единица «нор» происходит от арабского «нахр» – река, анхор. Улугнор означает большой анхор.

Жом и Жомбой

В Самаркандской области встречаются кишлаки Жом, Жомбой, есть также район с таким названием. Кишлак Жом, расположенный между Самаркандской и Кашкадарьинской областями, – один из крупных населенных пунктов, в котором проживает более 35 тысяч человек.

По-персидски «жом» значит таз, сосуд. Однако в этом случае этимология слова вовсе не связана с персидским языком. Скорее всего, оно происходит от древнетюркского и монгольского слова «ём». «Ём» или «жом» обозначает «станция», «укрепление». То есть место, где имеется стойло для содержания лошадей, где живут служащие, передающие сообщения от станции к станции.

В специальной литературе указано, что лексическая единица «бой» в слове Жомбой происходит от названия рода «бойли», представители которого проживали в этой местности. По мнению других исследователей, данное название вовсе не имеет отношения к словам «ём» или «бойли».



MUNAJJIMLAR BASHORATI

(3-iyundan – 9-iyungacha)



Qo'y. Hayotning deyarli barcha jabhalarida vaziyatlar siz kutgandek bo'lmashligi mumkin. Odamlar bilan munosabat qilish borasidagi ba'zi qarashlaringizni qayta ko'rib chiqing. Osoyishtalik va farog'at uyg'unligini buzmaslik uchun har qanday vaziyatda o'zingizni qo'lga olib, og'irroq bo'lishga harakat qiling.



Buzoq. Sizni his-hayajonga boy onlar va ruhan ta'sirlanish davri kutmoqda. Aslo taslim bo'lmang va umidsizlikka tushmang. Oqimga qarshi suzib, faqat ijobiy xislatlaringizni namoyon eting. Hafta so'ngiga borib barcha masalalar birin-ketin hal bo'lib, xotirjam olish imkoniyatiga ega bo'lasiz.



Egizaklar. Moliyaviy ishlarni yo'lga qo'yish va oilaviy byudjetni qayta ko'rib chiqish vaqti yetdi. Bu davrda daromadni orttirish uchun ajoyib imkoniyatlar mavjud. Foydali va omadli taklif kelib tushishi mumkin. Har qanday ishga qo'l urishdan oldin yaxshilab o'ylab ko'rib, so'ngra harakatga kirishing.



Qisqichbaqa. Bu hafta sizga yaxshi kayfiyat va ruhiy ko'tarinkilik hamrohlik qiladi. Ish joyingizda yangi-yangi yutuq va muvaffaqiyatlarga erishasiz. Asosiysi, o'zingizga bo'lgan ishonchni yo'qotmang, o'z nuqtai nazariningizni himoya qilishdan cho'chimang. Dam olish kunlari hushyor va kuzatuvchan bo'lish talab etiladi.



Arslon. Sizdagi faollik sezilarli darajada ortib bormoqda. Bu davrda har qanday masalalar osonlikcha o'z yechimini topadi, shuningdek, mushkul vazifalarni tez orada bajarasiz. Shirin-suxanlik va boadablik bilan harakat qiling, shunda hech kim hech bir taklifingizni rad eta olmaydi.



Parizod. Bu hafta kasb-hunaringizga oid ishlar biroz to'xtab qolishi ehtimoli bor. Buni shunchaki vaqtinchalik tanaffus deb qabul qiling. Bu kunlar sog'liqqa alohida e'tibor qaratishni ham unutmang. Imkon qadar yolg'iz qolib, hayot yo'lingizni izga solish borasida chuqur mulohaza yuritishga harakat qiling.



Tarozi. Sizni sertashvish va behalovat hafta kutmoqda. Ba'zida o'ylash imkoniyati qolmagan tang holatlar ham yuzaga kelishi mumkin. Bu hafta vaqtingiz ziq bo'lishiga qaramay, ko'p narsaga ulgurishingizga to'g'ri keladi. Shuning uchun hamma ishni reja bilan, bosqichma-bosqich amalga oshirishga harakat qiling.



Chayon. Bu hafta davomida o'zingizni tamoman baxtli inson deb hisoblaysiz. Oilaviy hayotingizni yengillatishga xizmat qiluvchi, anchadan beri kutilgan orzu-niyatlar amalga oshishi mumkin. Ish faoliyatingizda ham ko'pgina yutuq va muvaffaqiyatlar kutilmoqda.



O'qotar. Bu hafta salomatlik bilan bog'liq ba'zi muammolar yuzaga kelishi mumkin. Ushbu davrda moliyaviy yo'nalishdagi, ayniqsa, boshqa odamlar yoki hamkor sheriklar bilan bog'liq masalalarni imkon qadar ortga surib turing. Misol uchun, ishga oid tashvishlar biroz kutib turishi mumkin.



Tog' echkisi. Bu hafta taqdir siz uchun kutilmagan tuhfalar va yaxshi xabarlar hozirlamoqda. Seshanba kunidan ko'pchilikning e'tibori markazida bo'lishni boshlaysiz. Taqdiringizni o'zgartirib yuboruvchi yoki ish faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi insonlar bilan tanishuvlar kuzatilishi mumkin.



Qovg'a. Ushbu davr biroz yengil tortish, organizmga dam berish uchun qulay palladir. Har bir ishda mas'uliyatni vaqtincha sevimli va yaqin insonlarga topshirganingiz ma'qul. O'z nasihat va maslahatlaringiz bilan ularga xalaqit qilmay, vaqtincha chetdan kuzatuvchi, minnatdor tinglovchi va boshqalarning qobiliyatini qadrllovchi insonga aylaning.



Baliq. Sizni bu hafta qiziqarli tanishuvlar va uchrashuvlar, maroqli sayr va safarlar, ko'pgina foydali va yoqimli muloqotlar kutmoqda. Omadni «cho'chitib» yubormaslik uchun hech narsani oldindan rejalashtirmang. Turli muammo va masalalarni ularning yuzaga kelishiga qarab hal qilib, «oqim bo'ylab suzish»ga harakat qiling.

TELEFONDA SO'ZLASHUV MADANIYATI

uning ham qoidasi va odobi bor

Yaqinda taksiga chiqdim. Mashinada yosh yigit bilan keksa otaxon ham bor ekan. Haligi yigitning qulog'idan uyali telefon tushmadi. U manziliga yetguncha o'tgan 15-20 daqiqa vaqt davomida telefonda do'sti bilan baland ovozda suhbatlashib ketdi. Ularning suhbatini istasak-istamasak hamroh sifatida biz ham eshitishga majbur bo'ldik.

Suhbat mantiqsiz, oldi-qochdi gaplardan, g'iybatlardan iborat edi. Yigit institut qarshisida tushib qolganiga qaraganda, talaba edi. Taksidan tushgach ham, telefonini qulog'idan olmay ko'chani kesib o'tdi. Hech bo'lmasa shu holda yo'l harakati qoidalarini buzib, o'ziga va o'zgalarga xavf tug'dirayotganini anglasa yaxshi bo'lardi.

Aslini olganda, uyali telefon-dan faqat zarurat yuzasidan foydalanish kerak emasmi? Jamoat joyida shunday zarurat tug'ilsa, odamlardan xoliroq joyga o'tish maqsadga muvofiq. Jamoat transportida esa past ovozda gaplashish lozim.


Umuman, telefonda so'zlashishning o'ziga yara-sha qoidalar va madaniya-ti borligini bilamiz. Masalan, kimgadir qo'ng'iroq qilsangiz-u, u go'shakni ko'tarmasa, qayta-qayta qo'ng'iroq qilish odobsizlikdir. Yoki uyali telefonda jamoat joylarida baland ovozda so'zlashish, so'ki-nish, kimnidir haqorat qilish ham xunuk holat. Mazkur holatlarning ba'zilari javobgarlikka sabab bo'lishi qonunlarimizda ham belgilab qo'yilgan.

Uxlashga yotishdan oldin telefondan foydalanish quyidagi oqibatlariga olib kelishi mumkin:

Ko'z xiralashishi. Ekraniga uzoq vaqt qarab turish tufayli ko'z gavhari yaqin va uzoq masofalardagi narsalarni idrok etishga moslashish qobiliyatini yo'qotadi.

Uyqu buzilishi. Telefon nuri melatonin gormoni ishlab chiqarilishini kuchaytiradi va bioritmlar buzilishiga olib keladi.

Bo'yin og'rig'i. Bir xil holatda tortilib turgan bo'yin mushaklari tez toliqadi va og'riq paydo bo'ladi.



Ayrim rivojlangan mamlakatlar fuqarolariga e'tibor berganmisiz? Ularning ko'pchiligi oddiy, tugma-li, android bo'lmagan qo'l telefonidan foydalanadi. Nima uchun

deb o'ylaysiz? Sizingcha, ularda naq rapidadek keladigan katta sensorli telefonlarni sotib olish imkoniyati yo'qmi? Borlikka bor. Faqat ular chalg'ituv-chi ko'ngilochar ilovalardan foydalanishmaydi. Foydali ilovalar esa kompyuterlarida mavjud. Xullas, vaqtni tejab, ko'p ishga ulgurishni xohlaydilar. Bizda-chi, ba'zi onalar bolasining tarbiyasi bilan shug'ullanish o'rniga ularning qo'lga uyali telefon berib qo'yishni ma'qul ko'rishadi.

Bu mavzuda yana uzoq mulohaza yuritib, ko'plab hayotiy misollar keltirishimiz mumkin. Barchasidan chiqariladigan xulosa shundayki, farzandlarimizga odob-axloq, gigiena, yo'l harakati qoidalarini o'rgatganimizdek, uyali telefonidan foydalanish odobini ham o'rgataylik.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.



Rassom: Husan SODIQOV

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari –

podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotiblar –

Jahongir SHAROFBOYEV
Erkin SATTOROV

Navbatchilar –

Kamol OLLOYOROV
Radik TUMPAROV

Sahifalovchilar –

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'l-yozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosil-ganda manba ko'rsatilishi shart.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

«Kolorpak» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Korxonalar manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^a-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda
0120-raqam bilan ro'yxatga
olingan.

Buyurtma №1856.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma
taboq. 50201 nusxada chop etildi.
Obuna raqamlari:
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:
100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk
ko'chasi 9-uy.

